

**N.M. Quchqorova**

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI  
TARBIYALANUVCHILARIGA O'YIN  
ORQALI TARBIYA BERISH**

+1. 202

Q - 70

17a

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**Maktabgacha ta'lif metodikasi kafedrasи**

**N.M. Quchqorova**

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARI  
TARBIYALANUVCHILARIGA O'YIN ORQALI  
TARBIYA BERISH**

**Bilim sohasi:** 100000-Gumanitar

**Ta'lif sohasi:** 110000 - Pedagogika

**TOSHKENT – 2022**

**N.M. Quchqorova. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga o'yin orqali tarbiya berish. / o'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2022 y. –74 b.**

Mazkur o'quv-uslubiy qo'llanma oliy va o'rta maxsus ta'limi muassasalaridagi maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari va maktabgacha ta'lim tashkiloti uslubchilari va tarbiyachilariga mo'ljallangan bo'lib, unda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining aqliy, axloqiy, jismoniy va psixologik jihatdan rivojlantirishga qaratilgan o'yin turlari, ularni o'tkazish metodikasi berilgan. Bo'lg'usi tarbiyachilar va maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik faoliyat yurituvchilar samaradorlikka erishish uchun metodik qo'llanmadagi ma'lumotlardan ijodiy foydalanishlari mumkin.

**N.M. Quchqorova** – “Maktabgacha ta'lim metodikasi” kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Taqrizchilar:**

**Otajonov J.** – FarDU, “Pedagogika” kafedrasi mudiri, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

**Sabirova Ch.A.** – UrDU, Pedagogika-psixologiya kafedrasi dotsenti, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori



O'quv-uslubiy qo'llanma Urganch davlat universiteti o'quv-uslubiy kengashining 2021-yil 7-apreldagi №3 -sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan

## MUNDARIJA

Kirish.....	4
<b>I BOB. O'YIN- HAYOTNI ANGLASH VA O'RGANISH SHAKLI</b>	
1.1. Buyuk adiblarning o'yin haqida fikrlari.....	5
1.2. Maktabgacha ta'lif tashkiloti pedagogik jarayonida o'yinning ahamiyati.....	13
<b>II BOB. O'YIN TURLARI</b>	
2.1.Ijodiy o'yinlar.....	17
2.2. Psixologik o'yinlar.....	22
<b>III BOB. BOLALARDA TARBIYA TURLARINI O'YIN ORQALI SHAKLLANTIRISH</b>	
3.1. Tarbiya turlari.....	27
3.2. Aqliy tarbiyaga oid ta'limi o'yinlar.....	33
3.3. Jismoniy tarbiyaga oid "Harakatli o'yinlar.....	59
3.4. O'yinlar rasmlarda.....	68
Xulosa.....	71
Foydalaniłgan adabiyotlar.....	72

## KIRISH

Maktabgacha ta'lif tashkilotlarda ta'lif-tarbiyaviy ishlarni muvafaqqiyatlari amalga oshirilishi maktabgacha ta'lif tashkilotlariagi pedagogik jarayonning har bir faoliyat turini to'g'ri tashkil etilishiga bog'liqdir. Ta'lif-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etilishida zamonaviy interfaol usullardan, bola uchun eng qiziq va maqbul shakl hisoblangan o'yindan foydalanish samarali natija beradi. O'yin inson o'zligining namoyon bo'lishi, uning takomillashuv usulidir. O'yin kattalar hayotida muayyan o'rinni tutar ekan, u bolalar uchun alohida ahamiyatga egadir. Uni «bolalikning hamrohi» deb atash qabul qilingan. U maktabgacha yoshdagagi bolalar hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi. Mehnat va ta'lif bilan uzviy aloqada bo'lgan holda yetakchi faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Bola shug'ullanadigan ko'pchilik jiddiy ishlarni o'yin shaklida bo'ladi. O'yinda shaxsdagi barcha mavjud jihatlar ishga tushadi: bola harakat qiladi, gapiradi, idrok etadi, o'ylaydi. O'yin tarbiyaning muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bois ham, kelgusi yillarda maktabgacha ta'lif sohasini rivojlantirish borasidagi strategik maqsadimiz – ijtimoiy ahvoldidan qat'iy nazar, bog'cha yoshidagi har bir bolani ushbu ta'lif yo'nalishi bilan to'liq qamrab olish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat. Bir necha bor ta'kidlaganidek, milliy qadriyatlarimizni, sharqona pedagogikani tiklash hozirgi kunning o'ta dolzrab vazifasidir. ( Sh. Mirziyoyev)

Mazkur o'quv-uslubiy qo'llanmada o'yin va uning turlariga doir ma'lumotlar yosh avlodni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu o'quv-uslubiy ko'rsatmani magistr-talabalar, tarbiyachilarga taqdim eta turib, bu manba ma'lum darajada o'quv-tarbiyaviy jarayonning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, degan umiddamiz.

Muallif kitobxonlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarni qabul qiladi, keyingi nashrlarda, albatta, ularni inobatga oladi.

**Muallif**

## **I BOB. O'YIN- HAYOTNI ANGLASH VA O'RGANISH SHAKLI**

### **1.1. Buyuk adiblarning o'yin haqida fikrlari.**

Yurtimizda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi, magistrlarning metodik tayyorgarligiga muhim talablar qo'yilayotgan bir vaqtida uning pedagogik-psixologik tayyorgarligini takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish, dastur talablari asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, faoliyatlarga kreativ yondashgan holda turli usul va vositalarni amaliy qo'llay bilish va tarbiyachilarning pedagogik kasbiy kompetentligini shakllantirish hozirgi kundagi dolzARB masalalardandir.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida alohida ta'kidlab o'tilganidek, o'qitish jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi ta'lim samaradorligining ortishida muhim o'rinn tutadi.

«Bola dunyoga kelganidan boshlab, unda aynan maktabgacha bo'lgan yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy-estetik va jismoniy xislatlar shakllanadi. Pedagogik texnologiyalar bilan tashkil etilgan faoliyatlarda tarbiyanuvchilar o'zlarini erkin xis qiladilar, barcha topshiriqlarni bajonidil bajaradilar. Tarbiyanuvchilar egallashlari kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni tez va zo'riqishsiz, oson egallaydilar, o'ynab zavq oladilar, tafakkurlari rivojlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda bunday natijalarga erishish uchun albatta metodistning har bir pedagog bilan amalga oshiradigan ishlar rejasini puxta tuzishi va uni amaliyotga tadbiq eta olishi zarur bo'ladi.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev yosh avlod tarbiyasiga katta ahamiyat berib, "Yosh avlodni tarbiyalash biz uchun eng asosiy vazifadir" deb bejiz ta'kidlamaganlar. Hozirgi vaqtida O'zbekistonda tarbiyaning odatiy bo'lgan shakllari va usullarini izlab topish, o'sib borayotgan avlodda mustahkam umuminsoniy ishonch va qarashlarini shakllantirish; shaxsda milliy madaniyat va milliy qadriyatlarni hurmat qilish, avaylab asrash tuyg'ularini o'stirish lozim.

O‘yin qadim zamonlardan beri pedagog, psixolog, faylasuf, etnograf, san’atshunos olimlar diqqatini o‘ziga tortib kelgan bo‘lib, jamiyat hayotida mehnatdan keyin turadi va uning mazmunini belgilaydi. Ibtidoiy jamoa qabilalari o‘z o‘yinlarida ovchilik, urush, dehqonchilik ishlarini aks ettirganlar. Masalan, o‘sha davrdagi ba’zi qabilalarning sholi sepish jarayoni o‘yinlar bilan juda katta tantana qilib amalga oshirilar edi.

Ya.A.Komenskiy, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, P.F.Lestgaflarning g‘oyalari hozirgi zamon bolalar o‘yinlari nazariyasini uchun ham ahamiyatlidir. “Bolalar o‘yini ko‘p asrlik tarixga ega— deb yozgan edi K.D.Ushinskiy, - insonning o‘zi tomonidan ishlab chiqilgan qudratli tarbiyaviy vosita va shuning uchun ham unda inson tabiatining haqiqiy ehtiyoji ifodalangan”.

Yan Amos Komenskiy o‘yinni bola faoliyatining, uning tabiatini va mayllariga to‘g‘ri keladigan zarur shakli deb hisoblardi. Uning fikricha o‘yin – bolaning barcha qobiliyat ko‘rinishlari rivojlanadigan jiddiy aqliy faoliyatdir, o‘yinda borliq, dunyo haqidagi tasavvurlar doirasi kengayadi va boyiydi, nutq rivojlanadi. Bola o‘yin davomida tengqurlari bilan do‘splashadi. YA.A.Komenskiy o‘yinga quvnoq bolalik va bolani uyg‘ un rivojlanish sharti sifatida qarar ekan, kattalarga bolalar o‘yinlariga c’tiborli munosabatda bo‘lishni, ularga oqilona rahbarlik qilishni masalahat bergen edi.

P.F.Lestgaft bolalar o‘z o‘yinlarida tevarak-atrofdan olgan taassurotlarini aks ettiradilar, deydi. Bunday faoliyat bolaning rivojlanishida katta ahamiyatga egadir.

Shunday qilib o‘yining ijtimoiy voqeasi ekanligini, o‘yinda tevarak-atrofdagi borliq aks ettirilishini ilg‘or olim va pedagoglar o‘zlarining kuzatish va ilmiy tadqiqotlari orqali isbotlab berdilar.

M.Qoshg‘ariy keltirgan ma’lumotlar o‘yinlarning tarixiy zaminiga va asosga ega ekanligini ko‘rsatadi. Darhaqiqat o‘yin nomlari va o‘yinlarning o‘ynalishi tarkibi avloddan-avlodga o‘tib kelgan.

Shunday savol tug‘iladi qanday o‘yinlari bo‘lgan? O‘zbek xalqining shox asari hisoblangan.”Devonu lug‘atit turk” da o‘yinlar to‘g‘risida muhim ma’lumotlar keltiriladi.

Afsuski, qadimiy o‘yin nomlari tadbiq etilmagan, o‘yinlarning o‘ynalishi tartibi tiklanmagan.

M. Qoshg'ariy lug'atida zikr etilgan o'yinlar nomini va uning tartibini tiklash va tadbiq etish katta ahamiyatga ega. Zero, o'yinlar xalq madaniyatining ajralmas bir bo'lagidir. "Devonu lug'atit turk" da anchagina o'yinlarning nomlari keltirilgan. Ayrim o'yinlarning o'ynalish tartibi batafsil keltirilgan. Hozirgi kunda bolalar sevib o'ynayotgan yong'oq, poylama singari o'yinlar.

X-XII asrlarda ham ommaviy bo'lgan. Bu hodisaning hozirgi nomi do'l "Devonu lug'atit turk" da yong'oq o'yini bilan bevosita bog'liq bo'lgan anchagina hodisalarining nomlari qayd etilgan.

"Chavgon" haqidagi ma'lumotlarni A.Navoiy, Bobur, va boshqa klassiklar asarlarida ham uchratish mumkin. Firdavsiyning "Shoxnomasi" da esa chavgon haqida voqeа bayon qilinadi.

M.Qoshg'ariy o'yin nomini chavgon to'pini uradigan cho'p nomidan olingenligini ta'kidlaydi. O'tmishda kattalar va kichiklar sevib o'ynagan o'yinlardan biri koptok o'yini bo'lgan. Qoshg'ariy lug'atida koptok nomi "tabiq" deb berilgan. Koptok o'yinini ko'proq turk qavliga mansub aholi o'ynagan.

O'yin boshida kimki koptokni tayoq ayrisi bilan qattiq ursa o'yinni o'sha boshlagan. Qadimda rezina koptoklar bo'lмаган. Albatta ijodkor xalqimiz yung va ipak matodan chiroyli koptoklar o'ynashgan.

Sigir, tuya, ot juni koptok yasash uchun eng yaxshi xomashyo hisoblangan. Koptok bilan o'ynaladigan o'yinlarning turi ham ko'p bo'lgan.

"Mungiz-mungiz" degan bolalar o'yini quyidagicha o'ynaladi. Bolalar birorta unga chuqur bo'lмаган chuqurcha atrofida o'tirishadi.

Sonlari orasida ho'l qum olib to'ldiriladilar. So'ng qumni qo'llari bilan uradilar. Ulardan biri (ona boshi) mungiz-mungiz) deydi. Qolganlar na mungiz deydilar. Ona boshi birin-ketin shoxli hayvonlar nomini aytadi, bolalar takrorlaysilar.

Ona boshi shu nomlar orasiga tuya, ot va boshqa shoxi yo'q hayvonlar nomini aytib chalg' itadi. Bolalarning birortasi uning ketidan shoxsiz hayvon nomini aytib yuborsa, o'yin shartiga muvofiq uni chuqurga itarib yuborishadi.

Bobokalonlarimiz Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino asarlarida ham bolalar ijodkorligi folklor o'yinlariga ta'lluqli ma'lumotlar juda ko'p uchraydi.

Biz ko'p yillik tarixga egamiz. Bu tarix o'zbek xalqining ilm-fandagi g'oyalarining pishiqligi, yaratuvchanligi, qahramonlikka to'la hayoti va faoliyati bilan ko'plab boshqa xalqlarga o'rnat bo'lib hisoblangan. O'z zamonida esa o'tmishtda bobolarimiz yaratib ketgan manbalardan ham begonalasha boshladik.

Biz o'zga xalqlar tarixiy, madaniyatini va udumlarini o'rganib hurmatini joyiga qo'yib keldig-u, o'zimizning tariximiz fani, madaniyati, urf-odatimizni o'rganmadik. Unga humatsizlik qildik. Natijada bugungi kunga kelib tarbiyaviy ishlarda ko'plab kamchiliklarimiz ko'rinish qoldi.

Xalqimiz ko'p sohalarda millatchilikda ayblanib urf-odati va an'analari ta'qiqlab kelindi. Masalan: o'zbek milliy o'yinlarining o'ynalishiga yo'l qo'yilmadi.

Ta'kidlaganimizdek, har bir xalqning sevimli milliy o'yinlari bo'lgani kabi, o'zbek xalqining ham o'yinlari bo'lgan.

Ularning yaratilishi tarixi uzoqlarga borib taqaladi. O'zbek xalqi milliy o'yinlarining yaratilishi xalqning yashashi, mehnati, o'z-o'zini himoya qilish ehtiyojidan kelib chiqadi.

Shu tariqa o'yin tarixiy taraqqiyot jarayonida mehnat faoliyati natijasida paydo bo'lgan ijtimoiy faoliyatdir; o'yin doimo haqiqiy hayotni aks ettiradi. Demak, ijtimoiy hayat o'zgarishi bilan uning mazmuni ham o'zgaradi; o'yin ma'lum maqsadga yo'naltirilgan ongli faoliyat bo'lib, uning mehnat bilan ko'p umumiyligi bor va yoshlarni mehnatga tayyorlashga xizmat qiladi. O'yin faoliyati asosida boladagi o'quv faoliyati rivojlanadi, bola qanchalik yaxshi o'ynasa, u maktabda shunchalik yaxshi o'qiydi.

Ma'lumki, bolalarning asosiy vaqtı o'yin bilan o'tadi. O'yin mактабгача yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishining muhim shakli, ularning asosiy faoliyati bo'lib hisoblanadi. O'yin inson o'zligining namoyon bo'lishi, uning takomillashuv usulidir. O'yin kattalar hayatida muayyan o'rın tutar ekan, u bolalar uchun alohida ahamiyatga egadir. Uni "bolalikning hamrohi" deb atash qabul qilingan. O'yin jarayonida bola shaxsi faoliyat sub'yekti sifatida shakllana boshlaydi. O'yin uzoq davrlardan beri mashhur

olimlar, pedagog psixologlar, faylasuflar, sotsiologlar, etnograflar va madaniyat arboblari diqqatini o'ziga qaratib kelingan dolzarb mavzudagi muammolardan biridir.

Ilk yoshli bolalar o'yin faoliyatining birinchi bosqichi tanishtiruvchi o'yin bo'lib, u narsa-buyum-o'yin faoliyatidir. Uning mazmuni qo'l ishidagi murakkab va nozik harakatlardir.

Keyingi bosqich aks ettirish o'yini hisoblanadi. Bu ilk yoshli bolalar o'yini psixologik mazmunining rivojlanishida eng yuqori nuqta hisoblanadi. Kattalar ta'lim-tarbiyaviy ishlarini ma'lum izchillik bilan olib borsalar, bu yoshdagি bolalar narsa va buyumlar nomini, nimaga ishlatilishini bilib oladilar va bu yangi bilimlarni o'z o'yinlarida qo'llay boshlaydilar.

Bu yoshdagи bolalar o'yini mazmuni jihatidan predmetli faoliyatni aks ettiradi.

Birinchi yoshning oxiri va ikkinchi yoshdagи bolalar o'yinida syujetni aks ettirish yuzaga keladi. Bola qo'lidagi buyum bilan undan qanday foydalanish kerakligini aks ettiradi.

Navbatdagи bosqich rolli o'yin bo'lib, unda bolalar o'zlariga tanish bo'lgan kattalar mchhnati va kishilarning ijtimoiy munosabatilarini aks ettiradilar.

Bolalar o'yin faoliyatining bosqichma-bosqich rivojlanishi to'g'risidagi ilmiy tasavvurlar har xil yosh guruhlarida bolalarning o'yin faoliyatiga rahbarlikning aniq sistemali tavsiyalarini ishlab chiqish imkoniyatini yaratdi.

Shunday qilib MTT ning pedagogik jarayonda o'yinning tutgan o'rnı juda katta bo'lib, o'yindan maktabgacha yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berishda keng foydalaniladi.

Zero, o'yin bolalarning mustaqil faoliyati bo'lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo'ladi;

- o'yin maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar hayotini tashkil etish shaklidir;
- o'yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir;
- o'yin bolalarga ta'lim va tarbiya berishning metod va usulidir;
- o'yin bolalarni o'quv faoliyatiga tayyorlash vositasidir.

Taniqli pedagog-olimlarning olib borgan tadqiqotlari o'yinga kompleks rahbarlik qilish orqali bolalarga o'yinning mazmuni,

tashkil etilishi, tuzilishi, bolalarning axloqiy munosabatlari, bolalar o'yinining rivojlanish darajasiga ta'sir etish mumkinligini ko'rsatdi.

Bolalar o'yini uning mazmuni, xususiyati, tashkil etilishiga ko'ra xilma-xildir.

Ijodiy o'yinlarni bolalar o'zlar o'ylab topishadi. Unda oldindan belgilangan qoidalar bo'lmaydi. O'yin qoidasini bolalar o'zlar o'yin jarayonida belgilashadi.

Qoidali o'yinlarning mazmuni va qoidasi kattalar tomonidan belgilanadi. Qoidali o'yinlarga quyidagilar kiradi: didaktik o'yinlar, harakatli o'yinlar, musiqaviy o'yinlar, ermak o'yinlar.

Bolalarga ta'lif-tarbiya berish maqsadida kattalarning o'yinni tanlay bilishi, unga to'g'ri rahbarlik qilish "MTM ta'lif va tarbiya dasturi"da belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlaydi.

O'yin bolalarni rivojlantirish va tarbiyalash vositasidir. Psixologlar o'yinni maktabgacha yosh davrida yetakchi faoliyat deb hisoblaydilar. O'yin tufayli bolaning yuqori rivojlanish bosqichiga o'tishini ta'minlovchi sifatlar shakllanadi, uni ruhiyatida sezilarli o'zgarishlar yuz beradi.

O'yinda bola shaxsining hamma tomoni bir-biriga o'zaro ta'sir etgan holda shakllanadi. O'ynayotgan bolani kuzatayotib uning qiziqishlarini, tevarak-atrof to'g'risidagi tasavvurini, kattalarga va o'rtoqlariga bo'lgan munosabatini bilib olish mumkin.

Shaxsdagi biron sifatni tarbiyalash uchun uning boshqa tomonlarini ham rivojlantirish kerak. Masalan, bolaning o'yiniga qiziqishini, tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantirish uchun mazmun jihatidan boy o'yinlar yaratilishi kerak. Bolalarning ijodiy o'yinlarini rivojlantirish uchun esa o'z navbatida yaxshi tashkil etilgan bolalar jamoasi zarur bo'ladi.

O'yin bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalash sistemasida, MTMning ta'lif-tarbiya ishida, axloqiy, mehnat va estetik tomonlama tarbiyalashda katta o'rin tutadi.

O'yinda bola organizmiga xos bo'lgan talab va ehtiyojlar qoniqtiriladi, hayotiy faollik ortadi, bardamlik, tetiklik, quvnoqlik tarbiyalanadi. Shuning uchun ham bolalarni jismoniy tarbiyalash sistemasida o'yin munosib o'rin egallaydi.

O'yin ta'lim va mashg'ulotlar bilan, kundalik hayotdagi kuzatishlar bilan uzviy bog'liq bo'lib juda katta ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ijodiy o'yinlarda muhim bilim egallash jarayoni yuzaga keladi, bu bolaning aqliy kuchini ishga soladi, tafakkurini, hayolini, diqqatini, xotirani faollashtirishni talab qiladi, bola masalalarni mustaqil hal qilishga o'rganadi, o'ylagan narsasini amalga oshirish uchun yaxshiroq va osonroq usul o'ylab topadi, o'z bilimlaridan foydalinish va uni so'z bilan ifodalashga o'rganadi.

O'yinda aks ettirlayotgan narsani bilib olishga qiziqish uyg'onadi. Ko'pincha o'yin bolalarga yangi bilim berish va ularning fikrini, bilim doirasini kengaytirish uchun xizmat qiladi. Ijodiy o'yinni tor didaktik maqsadlarga bo'ysundirib bo'lmaydi, bu o'yin yordamida juda katta tarbiyaviy vazifalar hal qilinadi.

Qoidali o'yin bolaning sensor rivojlanishini, tafakkur va nutqini, ixtiyorsiz diqqatini va xotirasini, har xil harakatlarini muntazam ravishda mashq qildirib borish imkonini beradi. Har bir qoidali o'yin ma'lum didaktik maqsadga ega bo'lib, bolani umumiyo rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Ta'limning o'yin shaklida bo'lishi muhim ahamiyatga ega bo'lib bolani umumiyo rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Ta'limning o'yin shaklida bo'lishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bolaning yosh xususiyatlariga mos keladi. Qiziqarli o'yin bolaning aqliy faolligini oshiradi, o'yinda bola mashg' ulotdagiga nisbatan murakkabroq masalani hal qilishi mumkin. Bu ta'lim butunlay o'yin shaklida bo'lishi kerak degan gap emas. Ta'lim turli usullar va metodlarni qo'llashni talab etadi. O'yin ta'limning shakllaridan biri bo'lib, boshqa bir metod bilan qo'shib olib borilgandagina yaxshi natija beradi, bular kuzatish, suhbat, so'zlab berish va hakozolar.

Bola o'ynayotib o'z bilimidan foydalinishni, uni har xil sharoitda ishlata bilishni o'rganadi. Ijodiy o'yinlarda bolalarning fantaziysi, buyum yasashi, tajriba qilishiga keng yo'l ochiladi.

O'yinda aqliy rivojlanish bilan birga axloqiy sifatlar ham shakllanadi. O'yin jarayonida yuz bergan kechinmalar bola ongida chuqur iz qoldiradi, shuning uchun o'yin bolada yaxshi xislarni, ulug' vor orzular va intilishlarni, sog'lom qiziqishlarni tarbiyalashga yordam beradi.

O'yin mustaqil faoliyat bo'lib, bu jarayonda bolalar o'z tengdoshlari bilan aloqa qilishga kirishadilar. Ularni umumiy maqsad, unga erishishdagi umumiy kechinmalar birlashtiradi. Shuning uchun o'yin do'stona munosabatlarni tarbiyalashda, jamoa hayoti malakalarini, tashkilotchilik qobiliyatlarini shakllantirishda muhimdir. Birgalikdagi o'yin bilan birlashgan kichik bolalar jamoasida murakkab munosabatlar vujudga keladi. Tarbiyachining vazifasi har bir bolani faol o'yinga jalg qilish, bolalar o'rtasida do'stlikka, haqqoniylikka, o'rtoqlarini javobgarligini sezishga asoslangan munosabatlar o'rnatishdan iborat.

O'yin mehnat tarbiyasi vazifasini bajarishga ham yordam beradi. Bolalar o'z o'yinlarida har xil kasbdagi kishilarni aks ettiradilar. Bu bilan ular kattalarning harakatlariga taqlid qilib qolmay, shu bilan bir qatorda ularning ishiga mehnatiga bo'lgan munosabatlarini ham aks ettiradilar. O'yin bolada ko'pincha mehnat qilish xohishini uyg'otadi, o'yin uchun kerakli narsalarni tayyorlash va yasashga majbur qiladi. O'yinda hozirgi zamon bolalariga xos bo'lgan texnikaga qiziqish paydo bo'ladi va rivojlanadi, bolalar har xil mashinalar yasaydilar va texnik o'yinchoqlar bilan o'ynaydilar.

O'yin estetik tarbiyaning muhim vositasidir. O'yinda ijodiy hayol, fikrlash qobiliyati yuzaga keladi va rivojlanadi. Yaxshi tanlangan o'yinchoq badiiy didni tarbiyalashga yordam beradi. Harakatli o'yinlarda harakatning go'zalligi va maromi bolalarni o'ziga maftun qiladi.

O'yinning katta tarbiyalovchi ahamiyati o'z-o'zidan amalga oshmaydi. O'yin befoyda, xatto zararli bo'lishi, ba'zan yomon hislarni qo'zg'atishi mumkin. Tarbiyachi o'yin yordamida bolalarni har tomonlama rivojlantirish vazifasini amalga oshirish uchun unga muntazam ravishda ta'sir etib borishi zarur.

Bu vazifani hal etishda o'yin bolalar bog'chasidagi ta'limgarbiyaviy ishning hamma tomonlari bilan bog'langan bo'lishi kerak. O'yinda bolalarning mashg'ulotlarda olgan bilim va malakalari aks etadi va rivojlantiriladi, ular orqali esa bola hayotga o'rgatiladi. Ikkinchi tomondan, o'yinda tarbiyalangan sifatlar faoliyatning boshqa turlariga ko'chiriladi.

## **1.2. Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogik jarayonida o‘yinning ahamiyatini**

O‘yining bola tarbiyasidagi asosiy roli bolalar muassasasi hayotini u bilan boyitishni talab etdi. Shuning uchun ham o‘yin bolalar hayotining kun tartibiga doimiy qilib kiritilgan. O‘yinlar uchun nonushtagacha va undan keyin, mashq‘ulotlardan so‘ng, sayrlardan so‘ng, kechqurun uyga ketishdan oldin vaqt ajratiladi. Ertalab o‘ta harakatchanlikni talab qilmaydigan o‘yinlar uchun sharoit yaratish maqsadga muvofiqdir. Mazmunan ko‘proq didaktik o‘yinchoqlar, stol ustida o‘ynaladigan stol-bosma o‘yinlari, syujcti-rolli o‘yinlarni o‘ynagan ma’qul.

Sayr davomida harakatli o‘yinlarni, qurish-yasash o‘yinlarini tashkil etish foydalidir. Kun tartibida o‘yin uchun maxsus vaqt belgilash o‘yining mustaqil faoliyat sifatida mavjud bo‘lishining va uni bolalar hayotini tashkil etish shakli sifatida, tarbiya vositasi sifatida qo‘llanilishining eng muhim pedagogik shartidir.

Bolalar o‘yining o‘ziga xosligi shundaki, u tevarak-atrofdagi hayotni, kishilarning faoliyati, ishlari, harakatlarini, ularning ish jarayonidagi o‘zaro munosabatlarini aks ettiradi. O‘yin paytida xona bolalar uchun dengiz, o‘rmon, metro, temir yo‘l vagoni bo‘lishi mumkin.

Bola hech qachon jim o‘ynamaydi, bitta o‘zi o‘ynasa ham u o‘yinchoq bilan gaplashadi, o‘zi tasvirlayotgan qahramon bilan muloqot o‘rnatadi, onasi, bemor, shifokor xullas hamma-hammaning o‘rniga o‘zi gapiraveradi. So‘z obrazning yaxshiroq ochilishiga yordam beradi.

Nutq o‘yin jarayonida juda katta ahmiyatga ega. Nutq orqali bolalar fikr almashadi, o‘z his-tuyg‘u, kechinmalarini o‘rtoqlashadi. So‘z bolalar o‘rtasida do’stona munosabatlar o‘rnatilishiga, tevarak-atrofdagi hayot voqealariga bir xilda munosabatda bo‘lishga yordam beradi.

Bolalarning o‘zi yaratgan o‘yindan kelib chiqadigan yoki kattalar tomonidan taklif etilgan o‘yining g‘oyasi, mazmuni, o‘yin harakatlari, rollar, o‘yin qoidalari uning tuzilishini tashkil etuvchi qirralardir.

O‘yin g‘oyasi - bu nima o‘ynashni belgilab olish: “do‘kon”, “shifoxona”, “uchuvchilar”, “bolalar muassasasi” va shunga

o‘xshashlar. O‘yin mazmuniga, g‘oyasiga qarab bolalarning bunday o‘yinlarini bir necha o‘ziga xos guruhlarga bo‘linadi.

O‘yinlarning bunday bo‘lishi albatta shartli bo‘lib, bir o‘yinda har xil hayotiy voqaelar aks etishi ham mumkin. G‘oya o‘yining mazmuni, jonli to‘qimasi, uning rivojlanishini, o‘yin harakatlarini, bolalar munosabatlарining har xilligi va o‘zaro bog‘lanishini belgilab beradi. O‘yining qiziqarli bo‘lishi va unda bolalarning qanday ishtirok etishlari o‘yining mazmuniga bog‘liq. O‘yinda bola ijro etadigan rol o‘yining asosiy o‘zagi va tarkibiy qismidir. Shuning uchun ham bu o‘yinlar rolli yoki syujetli-rolli o‘yinlar nomini olgan. Bolalar o‘yiniga tarbiyachining rahbarlik qilishi. O‘yin bolalarning qiziqarli ermagigina bo‘lib qolmay, shu bilan bir qatorda u bolalarni rivojlantirish va tarbiyalashning muhim vositasi hamdir. Ammo o‘yin kattalar tomonidan tashkil etilib, unga rahbarlik qilingandagina ijobiy natija beradi.

Pedagog bolalar o‘yiniga rahbarlik qilar ekan, quyidagi talablarga e’tibor berishi zarur: o‘yin mazmunini ta’lim-tarbiya beruvchi ahamiyatga ega bo‘lishi, aks ettirilayotgan narsalar haqidagi tasavvurlar to‘g‘ri va to‘la bo‘lishi, o‘yin harakatlariga faol, ma’lum maqsadga qaratilgan, ijodiy xususiyatga ega bo‘lishi kerak. Hamma va ayrim bolalarning qiziqishlarini e’tiborga olgan holda o‘yinga rahbarlik qilish, o‘yinchoqlarni va boshqa kerakli materiallardan maqsadga muvofiq foydalanish, bolalarning o‘yinda xayriyoh va xursand bo‘lishlarini ta’minalash lozim. Pedagog bolalar o‘yiniga rahbarlik qilar ekan, bola shaxsining hamma tomonlariga: ongiga, his tuyg‘ulariga, irodasiga, xulqiga ta’sir etishi va bundan bolalarni aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy tomonidan tarbiyalashda foydalanishi lozim. O‘yin jarayonida bolalarning bilimlari va tasavvurlari boyib, chuqurlashib boradi. O‘yinda u yoki bu rolni bajarayotib, bola o‘zining butun diqqatini o‘yinga qaratishi lozim. Bola o‘ynayotganda qishilar mehnati, ularning aniq harakatlari, munosabatlari to‘g‘risidagi tasavvuri etarli emasligini sezib qoladi, buning natijasida kattalarga savol bera boshlaydi. Tarbiyachi bolalarning bunday savollariga javob berib, ularning bilimlari aniqlik kiritadi, boyitadi.

Tarbiyachi o‘yin orqali bolalarda ona-vatanga, o‘z xalqiga boshqa millat qishilariga ijobiy munosabatni shakllantiradi,

mustahkamlaydi. O‘yin orqali tarbiyachi bolalarda jasurlik, to‘g‘rilik, o‘zini tuta bilishlik kabi sifatlarni tarbiyalaydi.O‘yin bolalarda ijtimoiy axloqni, ularning hayotga, bir-biriga bo‘lgan munosabatini shakllantiruvchi o‘ziga xos maktabdir. O‘yinda bola qishilarning axfoq-odob normalarini, mehnatga munosabatlarini bilib oлади.

Tarbiyachi bolalar o‘yiniga rahbarlik qilayotib, ularni jamoa orqali ham tarbiyalab boradi. O‘yin jarayonida bolalar o‘z xoxishlarini jamoa xoxishi bilan kelishib olishga, o‘yinda o‘rnatilgan qoidalarga rioya qilishga o‘rgandilar.

Ammo o‘yinga to‘g‘ ri rahbarlik qilinmasa, u noxush oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Tarbiyachi bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalashda o‘yindan keng foydalанилди. Juda ko‘pchilik o‘yinlar bolalardan faol harakat qilishni talab etadi, bu esa o‘z navbatida organizmda modda almashinishini yaxshilaydi, qon aylanishini tezlashtiradi. Bundan tashqari faol harakat qilish bola gavdasini to‘g‘ ri o‘sishini, harakatlari chirolyi bo‘lishini ham ta’minkaydi. O‘yin orqali tarbiyachi bolalarda quvnoq kayfiyat yaratadi, ijobjiy ruhiyat hosil qiladi, bu esa bolaning asab-ruhiy, jismoniy tarbiyasini yaxshilaydi.

O‘yin bolalarga estetik tarbiya berish vositasi sifatida ham keng qo‘llaniladi. Bolalar tevarak-atrofdagi hayotni, voqealikni obrazlar, rollar orqali ham aks ettiradilar. O‘yinda boolalarning avval oлган tassurotlari orqali obraz yaratishlari – xayol juda ham katta ahamiyatga eга. Bolalar juda ko‘p o‘yinlarda avval o‘rgangan ashula, she‘r, raqs, topishmoqlardan keng foydalanadilar. Bundan tarbiyachi bolalarda estetik did, zavqni tarbiyalashda foydalanadi.

O‘yin vaqtini tanlay bilish ham muhim ahamiyatga eга. Nonushta bilan mashg‘ ulot o‘rtasida bolalar o‘yiniga 8-10 daqiqa vaqt beriladi. Bunda bolalar ko‘pincha avval boshlagan o‘yinlarini davom ettiradilar. Sayrda bolalarning o‘ynashlari uchun 1 soat – 1 soat 20 minut vaqt ajratiladi. Kunduzgi uyqu va kechki nonushtadan keyin ham bolalar o‘yinga vaqt beriladi. Bunda bolalar ko‘proq syujetli-rolli o‘yinlarni, qurilish materiallari, qo‘g‘ irchoqlar bilan, stol ustti o‘ynichoqlari o‘ynashlari mumkin. SHu bilan birga ermak o‘yinlardan ham foydalaniladi.Ammo o‘yin bilan ta’lim o‘rtasidagi bog‘ liqlik bola ulg‘ aygan sari o‘zgarib boradi. Kichik guruuhda

o‘yin ta’lim berishning asosiy shakli hisoblansa, katta guruhg‘a borganda esa mashg‘ ulotlarda ta’limning roli ortadi. Tayyorlov guruhiga borganda bolalarning o‘zlarida maktabdag‘i o‘qishga ishtiyoq uyg‘ onib qoladi. Ammo bolalar uchun o‘yining qadri yo‘qolmaydi, balki mazmuni o‘zgaradi. Endi bolalarni ko‘proq fikriy faollilikni talab etuvchi o‘yinlar, sport tarzidagi o‘yinlar qiziqtira boshlaydi. Shunday qilib, pedagogika fani o‘yinga bola shaxsini har tomonlama shakllantirish vositasi va ular hayotini tashqil etish shakli, bolalar jamoasini shakllantirish vositasi deb qaraydi.

## II BOB. O'yin turlari

### 2.1. Ijodiy o'yinlar

Ijodiy o'yinlarda bolalarning tevarak-atrofdan olgan tasurotlari aks ettiriladi. Ijodiy o'yin bolalarning mustaqil o'yini bo'lib, o'yining mazmunini ular o'zлari o'ylab topadilar. Bu o'yinda bolalarning erkinligi, mustaqilligi, tashqilotchilik va ijodqorlik qobiliyatları to'laligicha namoyon bo'ladi. Ammo o'yinda hayotiy taassurotlar aynan aks ettirilmaydi, balki bolalar ongida qayta ishlab chiqiladi. Bu bolalarning o'yin g'oyasini yaratishlarida, uning mazmunini to'zib, tasvirlovchi vositalarni tanlashlarida va shunga o'xshashlarda namoyon bo'ladi.



Syujetli-rolli o'yin – maktabgacha yoshdagи bolalarning asosiy o'yin turlaridir.

Syujetli-rolli o'yin o'z xususiyatiga ko'ra aks ettiruvchi faoliyatdir. Tevarak-atorfdagi kattalar va tengdoshlarining hayoti va faoliyati bu o'yin mazmuniga manba bo'lib xizmat qiladi.

Bolalarning tevarak-atorfdagi hayotdan, tengdoshlari, kattalar faoliyatidan olgan taassurotlari ijodiy o'yinda qayta ishlanadi, to'ldiriladi, sifat jihatidan o'zgartiriladi. Bolalarning bunday o'yinlari tevarak-atrofdagi borliqni bilishning amaliy shaklidir.

Bolalar o'yininining o'ziga xos tomoni unda tasvirlovchi vaziyatlarning mavjudligidir. Tasvirlovchi vaziyat bolalarga o'yin jarayonida yuklangan rol va o'yin syujetidan tashqil topadi va har xil buyumlardan foydalanishni ham o'z ichiga oladi.

O'yining syujeti – bir-biriga hayotiy aloqador bo'lgan qator voqeа- hodisalar yig' indisidir.



Rol syujetli-rolli o‘yining asosiy zanjiri hisoblanadi. O‘yin bolada qanoatlanish, xursandchilik hissini paydo qiladi, shuning uchun bolani qiziqtirib, unda yaxshi kayfiyat uyg‘ otadi, bola organizmidagi hayotiy faoliyatni yaxshilaydi.

Bola o‘ynayotganda har hil harakatlar qiladi: yuguradi, sakraydi, tor joydan, ingichka taxta ustidan o‘tadi, engashdi, yuqoriga tirmashib chiqadi va hakozo.

Bu harakatlarning hammasini bola bemalol, o‘z xoxishi bilan bajaradi, natijada bolaning muskullari pishiydi, u harakatni engilroq, chaqqonroq bajaradigan bo‘lib qoladi.

Bolaning aqliy tomondan rivojlanishi uchun ham o‘yin katta ahamiyatga ega. O‘yin natijasida bolaning bilimi kengayib boradi. Rolli o‘yinlar bolaning kuzatuvchanligini, qiziquvchanligini, bilih doirasini rivojlantiradi, boyitadi.

O‘yinda bola o‘z oldiga maqsad qo‘yadi, bu boladan aql, idrok ishlatalishni talab qiladi, topag‘ onlikka o‘rgatadi. O‘yin jarayonida juda ko‘p gaplashishga, tortishishga, baxslashishga, aytib beirshga to‘g‘ ri keladi. Bolalar o‘zi yasayotgan narsalarini yaxshiroq yashash, qurish uchun juda ko‘p o‘ylab, fikrlashishlariga to‘g‘ ri keladi. Bular hammasi bola tafakkuri va xayolining rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir.

Bola o‘z o‘yinida borliqni aks ettirib, olgan rolining mazmuni bilan bog‘ liq bo‘lgan u yoki bu hissiyotni boshdan kechiradi. Masalan, Dilnoza ona-bola o‘yinida ona rollini o‘ynayotib, bolalarini ovqatlantiradi, kiyintiradi, ular bilan yaxshi munosabatda bo‘lib erkalaydi, ular bilan gaplashadi, kitoblar o‘qib beradi. Bu o‘yin bolada muloyiliklilik, g‘amxo‘rlik, e’tiborlilik kabi yaxshi hislarni uyg‘otadi.

Rolli-syujetli o‘yinlarning o‘ziga xos xususiyati. Rolli o‘yinlarning boshqa o‘yinlarga nisbatan o‘ziga xos xususiyatga egaligi ularda syujet, rol va xayol qilingan vaziyatning mavjud bo‘lishidir.

Bolalar biror narsa yoki voqeа to‘g‘risida yetarlicha tasavvurga ega bo‘lgandagina syujet, fikr, yuzaga keladi. Masalan bolalar “paroxod” o‘yinini o‘ynamoqchi bo‘lishdi. Bunga o‘yining qanday borishi to‘g‘risida syujet kerak. Syujet bolalarning bilimiga bog‘liq bo‘ladi. Bolalarda avval g‘oya paydo bo‘ladi, keyin mazmun

rivojlanadi. Ba'zan bolalar o'yinning qanday borishini oldindan belgilab oladilar. Masalan, Afrikaga "bormoqchi" bo'lsalar, sayohat vaqtida qilinadigan ishlarni oldindan belgilab oladilar. Bundan ko'rinish turibdiki, rolli o'yin jamoatchilik xususiyatiga ega, chunki bolalar bir-birlari bilan o'zaro munosabatda bo'ladilar.

Rolli o'yinda har bir bola o'ziga olgan rolni bajaradi masalan, ona, shafyor, tarbiyachi, enaga, artist va h.k

Rolli o'yinlarda didaktik, qoidalı – harakatlı o'yinlardagi singari qat'iy o'tnatilgan qoida bo'lmaydi. Bunda ko'pincha bolalar o'z xayol qilgan narsalari bo'yicha harakat qiladilar. Masalan, "raketaga tushib oyga uchadilar", "paroxodda suzadilar", "kasalni davolaydilar"...

Ammo, bolalarning hayollari bilan o'ynashlari ularni real voqealikdan uzoqlashtirib yubormaydimi degan savol tug'iladi, yo'q, bolalar o'zlarini buning o'yinligini yaxshi biladilar.

Shu bilan birga bolalarning kechinmalari, hayajonlari, qilgan harakatlari hammasi rostakam, sidqidildan bo'ladi. Masalan "doktor" roolidaga bola kasal to'g'risida qayg'uradi.

O'yin mavzusi bolalar olgan taassurotning kuchli, bolalarning qiziqishlari bilan belgilanadi. O'yinda bolalar aks ettiradigan ijtimoiy-siyosiy voqealar bolalarning bilim doirasi va hayotiy tajribasining kengayib borishiga bog'liq bo'ladi.

Rolli o'yinlarining mazmuni va mavzusi o'zgarishi bilan bir qatorda uning tuzilishi va o'yin shakllari o'zgaradi, bolalarning mustaqilligi va tashabbuskorligi ham o'sib boradi.

Avvaliga bolalar o'z-o'zicha alohida-alohida o'ynaydilar. Sekin-asta rolli o'yinlarning paydo bo'lishi, o'yinda kishilar o'rtasidagi munosabatni aks ettirish birgalikda bajariladigan o'yinni keltirib chiqaradi. Avvaliga katta bo'limgan guruhchalar 2-3 kishidan bo'lib o'ynashadi, katta va tayyorlov guruhlariga kelib kattaroq jamoaga birlashadilar.

O'yinda har xil rollar orqali o'zaro munosabatda bo'lish bolalarda o'rtoqlik munosabatlarini shakllantirishga yordam beradi. O'yinning tuzilishi va mazmuni o'zgarishi bilan o'yinchoqning roli va bolalarning unga nisbatan talabi ham o'zgarib boradi va x.k. Bog'cha yoshidagi bolalarda ijodiy o'yinning rivojlanib borishi. Uch yoshdagagi bolalarning o'yinlari yangi tus oladi: bola

qo‘g‘irchoqni va o‘zini kishilarning nomi bilan atay boshlaydi: masalan, bola mashina yasab uni boshqara boshlaydi. Kattalar undan sen kimsan?- deb so‘rasa, “Haydovchiman” deb javob beradi. Yoki qizcha qo‘g‘irchog‘iga ovqat pishirayapti. “Sen kimsan?”- degan savolga “Men oshpazman” deb javob beradi.

Bolalar o‘z o‘yinlarida sekin-asta murakkab bo‘lmagan syujetli o‘yinlarni o‘ynay boshlaydilar. Bunda asosan kundalik turmushda takrorlanib turadigan voqealar aks etadi. Bolaga ovqat berishadi, uqlashga yotqizishadi, mashinada tortishadi. Yana ovqat berishadi va uxlatishadi. Yoki qo‘g‘irchoq kasal bo‘lib qolsa, darrov uning qo‘li, oyog‘i bog‘lanadi, yolg‘ondakam dori beriladi.

Uchinchchi yoshning oxiriga kelib bola rol tanlay boshlaydi. “Men oyisiman”, “Men - vrachman” lekin bular birdaniga enaga, tarbiyachi, doktor bo‘lib qolishi mumkin.

Bola to‘rt yoshga o‘tganda syujetli-rolli o‘yinlar ancha rivojiana boshlaydi. O‘yinlar mavzusi har xil bo‘lib, boyib boradi. Bu yoshdagagi bolalar o‘z o‘yinlarida oila, MTTni, avtobusda, tramvayda kelayotgan kishini aks ettiradilar.

Tevarak-artofni kuzatish natijasida tasavvurlari kengayadi, bu ularning o‘yin mazmuniga ta’sir etadi: bayramlar, magazin, transportning har xil turlarini aks ettira boshlaydilar. Ammo bu yoshda ular hayotdagi voqealar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni hali tushunib yetolmaydilar.

Bola besh yoshga qadam qo‘yganda undagi kuzatuvchanlik taffakuri rivojlanganligi, bilim doirasi kengayganligi sababli o‘yin mazmuni ham murakkablashib boradi. Xayolni rivojlanib borishi orqasida ertak va hikoyalar mazmuni bo‘yicha murakkab bo‘lmagan o‘yinlarni o‘ynshadi.

O‘yin mazmuni bilan bir qatorda bolalarda hislar ham rivojlanib boradi. Kundalik hayotga nisbatan bolalarda hissiyot yuqori bo‘ladi. O‘yin birinchidan, xursandchilik bilan hamoxang kechadi. Ikkinchidan, bolalar kattalarning hislarini o‘z o‘yinlarida aks ettiradilar.

Katta maktabgacha yoshdagagi bolalarda ijodiy o‘yin juda ham yaxshi rivojlanadi. Bu o‘yinlarda bolalar o‘zlari eshitgan, ko‘rgan voqealar, hikoyalar, kitoblar va boshqa manbalardan olgan bilim, malakalarini, his-xayajonlarini to‘la qo‘llay boshlaydilar. Bu

yoshdagi bolalar o'yinlarida berilgan ta'lim-tarbiyaning natijasi yaqqol ko'rinish, sezilib turadi. Bolalar kim bilan o'ynashi to'g'risida va o'yining qanday borishi to'g'risida o'zaro kelishib oladilar. O'yinlar uzoqroq davom etadigan bo'lib boradi. Bitta o'yinni uzoq vaqt, hatto bir necha kun o'ynash mumkin, bunda har gal o'yinga yangilik kiritib boriladi.

Uzoq davom etadigan o'yinlar mактабгача yoshdagi bolalar o'yinlarining yuqori bosqichi hisobланади.

Katta mактабгача yoshdagi bolalar o'yinlariga to'g'ri rahbarlik qilib borilsa, ularning mustahкам jamoasi yuzaga kelib, u o'z an'anasiga, o'z qoidasiga ega bo'ladi. Bolalarda bиргаликда ijod qilish qobiliyati rivojланади, ular o'rtoqlarining fikri bilan kelishadigan, fikriga quloq soladigan bo'lib boradi.

Bolalar jamoasining shakllanishi uzoq vaqtни talab etadigan murakkab ish. Bolalar o'rtasida murakkab munosabatlar yuzaga kela boshlaydi.

Har bir bolaning o'ziga xos xususiyati yaqqol namoyon bo'lib boradi. Bunda bolalar faol tashkilotchi, o'ziga ishonadigan va aksincha, tortinchoq, indamaslarga bo'linadi. Faol bolalar har doim o'yinni o'z xohishiga qarab tanlaydi, qiziqarliroq rolni talab etadi. Ular ba'zan o'yinni buzishadi, o'rtoqlarini xasa qilishadi, ammo tarbiyachining ta'siriga tez berilishadi. Ularni ijobiy xususiyatlari, sog'lom qiziqishlari bo'ladi, tarbiyachi mana shular asosida ularning onggi va xissiga ta'sir etadi. O'yin mavzusi o'zgarishi bilan o'yinda qatnashuvchilarning ham o'zaro munosabatlari o'zgarib boradi. Kichkina bolalarning har biri o'z xolicha o'ynasa, keyinchalik 2-3 kishi bo'lib o'ynay boshlaydi, o'rtta mактабгача yoshga kelganda o'ynovchilar soni ko'payib, o'rtoqlik munosabatlari tarkib topa boshlaydi, bunday munosabatlar o'yinga mavzu mazmun tanlashda, rollar va o'yinchoqlarni taqsimlashda yuzaga keladi. O'yining tuzilishi va mazmuni rivojланib borishi bilan o'yinchoqning roli va unga talab ham o'zgarib boradi. Kichkina bolalar o'yinini ko'pincha o'yinchoq belgilaydi. Bitta o'yinchoq bir nechta vazifani bajarishi mumkin. O'rtta va katta mактабгача yoshdagi bolalarda o'yin to'g'risidagi fikr avval tug'iladi. Keyin o'ynay boshlaydi. O'yinchoq o'yin mazmuniga qarab tanlanadi.

## **2.2. Psixologik o'yinlar**

### **"Buzilgan telefon" bolalar uchun psixologik o'yin**

Ishtirokchilar navbatma-navbat bir-birlariga maqollarni uzatadilar, ularni taqdimotchi ikki uchida o'tirganning qulog'iga chaqirdi. Keyin ularning har biri boshqa uchidan unga yetkazilgan maqolni yetkazadi.

### **"Foyda ko'rgazmasi" psixologik o'yini**

O'yin ishtirokchilari har birida "sotish" va "sotib olish" nomlari bilan 2 varaqni olib borishadi Taqdimotchi bitta varaqda, "sotish" yozuvi ostida, undan xalos bo'lishni istagan barcha kamchiliklarini yozishni taklif qiladi va boshqa varaqda "sotib olish" yozuvi ostida fazilatlarni yozing, u aloqada yetishmayotgan narsadir. Keyin choyshablar o'yin ishtirokchilarining ko'kragiga biriktiriladi va ular "Yarmarka" mehmonlariga aylanib, yurishni boshlaydilar va kerakli narsalarni sotib olishni (yoki sotishni) taklif qiladilar. O'yin hamma atrofida aylanib, unga kerakli fazilatlarni sotib olish va sotishning barcha mumkin bo'lган variantlarini o'qiguncha davom etadi.

### **"Tuyg'uga nom bering" bolalar uchun psixologik o'yin"**

To'pni aylana bo'ylab uzatib, ishtirokchilar muloqotga xalaqit beradigan hissiyotlarni nomlaydilar. Keyin to'p boshqa tomonga uzatiladi va muloqotga yordam beradigan his-tuyg'ular chaqiriladi. Tuyg'ularni turli xil yo'llar bilan - harakat, mimika, imo-ishoralar, intonatsiya orqali ifodalash mumkin.

### **"Ismingiz" usuli**

Ishtirokchilar aylana shaklida turishadi, biri esa to'pni qo'shni siga uzatib, to'liq ismini aytadi. Boshqalarning vazifasi - to'pni aylana bo'ylab uzatib, ismining iloji boricha ko'p variantlarini nomlash (masalan, Katya, Katyusha, Katerina, Katenka, Katyushka, Ekaterina). Vazifa har bir ishtirokchi uchun takrorlanadi. Keyin har kim o'z ismini eshitganda qanday his qilgani haqidagi taassurotlari bilan o'rtoqlashadi.

### **“Axlat qutisi” mashq o‘yini**

Bolalar qog‘ozga o‘zlarini yozadilar salbiy fikrlar, noxush hodisalar, voqclar, vaziyatlar, choyshabni maydalab, chelakka tashlab qo‘ying (buni abadiy unutib qo‘ying).

### **“BURIME” bolalar uchun psixologik o‘yin**

She’riyatni yaratish oson, dedi shoir Tsvetik. Asosiysi, ma’no va qofiya bo‘lishi kerak. Ularning har biri bir varaq qog‘oz va qalam olib, yodga tushgan har qanday satrni yozadi, hattoki uzoqdan uning ritmik naqshidagi misrani eslatadi. Bundan tashqari, barcha qog‘oz parchalari aylana shaklida biriga o‘tkaziladi va yana bitta satr yoziladi, davomi oldingi qatorga, tarjixon qofiyada va hokazo. Ajablanadigan element uchun choyshabni naychaga o‘ralganingiz ma’qul, faqat oxirgi uchta satrni ko‘z o‘ngingizda qoldiring. Barglarning barchasi bir, ikki yoki uchta doiradan o‘tib ketgach, har biri boshlangan bargni olib, uni tomoshabinlarning kulgisiga ifodali o‘qiydi.

### **“FLY” psixologik o‘yini**

Konsentratsiya va sinov o‘yini. Zaif e’tibor va kontsentratsiyani ko‘rsatadiganlar kosmonavt sisatida qabul qilinmaydi. Hamma aylana yoki stolga o‘tiradi. Taqdimotchi ko‘rsatmasi. Uchdan uch kvadratchagacha tik-toe maydonini tasavvur qiling. Pashsha markazda o‘tiradi. Biz chivinni navbat bilan harakatlantiramiz. Faqat to‘rtta harakat bor: yuqoriga, pastga, o‘ngga, chapga. Xato orqaga qaytarishda bo‘ladi: yuqoriga va pastga va maydondan uchib chiqish. Vazifa hammaga, aylana shaklida, chivinni ruhiy ravishda harakatlantirish, ularning harakatlarini aytib, adashmaslikdir. Agar kimdir xato qilgan bo‘lsa - markazga bir tomchi va yana bir chivin. Raqobatdosh element uchun xatolar uchun jarima ballarini kiritishingiz mumkin.

Katta chivin. Hammasi tamom qiyin variant, hamma uchun emas, balki faqat eng diqqatli uchun mavjud. Uchdan uchga Rubik kubini tasavvur qiling. Biz yana ikkita harakatni qo‘shamiz - o‘zimizga va o‘zimizdan. Chivinni yo‘qotmaslik, harakatlarini diqqat bilan kuzatib borish va xatolarga yo‘l qo‘ymaslik muhimdir.

## **“ZOOPARK” psixologik o‘yin**

Aktyorlik o‘yini. 7-8 kishi qatnashadi, hamma istagan hayvonlarini tanlaydi: qo‘y, ot, cho‘chqa, mushuk, it, timsoh, platipus, qishda chaqqal, juftlashish davrida maral va boshqalar. Keyinchalik tanishish: har biri aylana shaklida boshqalarga ushbu hayvonning o‘ziga xos harakatini namoyish etadi. Shundan so‘ng, o‘z navbatida, avval “o‘zingizni”, so‘ngra boshqa har qanday hozirgi “hayvонни” ko‘rsatishingiz kerak. Ushbu “hayvon” harakatga keladi, o‘zini va keyin boshqa hayvонни ko‘rsatadi. Va boshqalar. Keyin siz “superzoo” ni e’lon qilishingiz mumkin. Bu barcha hayvonlar eng mubolag‘ali va yorqin ko‘rinishda bo‘lganida! Siz to‘g‘ri o‘ynashingiz mumkin. Ko‘chib o‘tishda noto‘g‘ri - o‘yindan chetlashtirildi.

## **“Yangi yil daraxti” psixologik o‘yin**

O‘yin uchun sizga kerak: stul yoki stul - 1 dona, qiz - 1 dona, kiyim shpindellari - juda ko‘p. Liboslar qizning libosiga ilib qo‘yilgan, qiz najasga qo‘yilgan, kompaniyadan 2 ta yigit tanlangan (siz odatda 2 ta jamoaga bo‘linishingiz mumkin), ular kiyimlarini mahkam bog‘lab olib tashlaydilar. Oxirgi kirpikni yechib oladigan yoki ko‘proq kiyim egasi qizni stuldan olib tashlaydi va u qancha bo‘lsa o‘padi. O‘yinni aksincha o‘ynash mumkin, ya’ni, bir yigit najas ustida turadi.

**“Quvnoq qo‘sish” Maqsad:** ijobiy munosabat, birlik tuyg‘ usini rivojlantirish

Mening qo‘limda to‘p bor. Endi men ipni barmog‘imga bog‘lab qo‘yaman va to‘pni o‘ngdagи Dima qo‘slniga beraman va uni ko‘rganimdan juda xursand bo‘lganim haqida qo‘sish aytaman - *“Men Dima guruhda bo‘lganidan juda xursandman ...”*.

Kim to‘pni qabul qilsa, ipni barmog‘ i bilan o‘raladi va uni o‘ng tomonida o‘tirgan keyingi bolaga uzatadi va biz birmamiz (*qo‘lida ip bo‘lgan har bir kishi*) biz unga quvonchli qo‘sish kuylaymiz. Shunday qilib, to‘p menga qaytib kelguncha. Zo‘r!

To‘p menga qaytib keldi, u aylana bo‘ylab yugurdi va barchamizni bog‘ladi. Bizning do‘stligimiz yanada mustahkamlanib, kayfiyatimiz yaxshilandi.

## **“Sovun pufagi”**

Maqsad: rivojlanish, hamjihatlik hissi, diqqatni rivojlantirish, hissiy yengilik.

Tavsif o‘yinlar: Bolalar aylanada juda yaqin turishadi - bu shunday *Ko‘chirilgan qabariq...* Keyin ular shishiradi: mushtlarga urilib, trubka singari bir-birining ustiga qo‘yilgan. Har bir ekshalatsiyadan keyin ular orqaga qadam tashlaydilar - “*qabariq*” ko‘payadi, bir necha marta nafas chiqaradi, hamma qo‘llarini birlashtirib, aylana bo‘ylab yurishadi, hukm:

“Portlat, qabariq!

Katta portlat!

Shu yo‘lda qoling

Portlamang! ”

Bu katta doira bo‘lib chiqadi. Keyin tarbiyachi u gapiradi: “*Qarsak!*” (yoki *qo‘llaringizni qarsaklar*) - qabariq yorilib, hamma markazga yuguradi (“*qabariq*” uchib ketgan) yoki xona bo‘ylab tarqalib ketgan. So‘nggi marta bolalar shunchaki sharni portlatmasdan puflashadi.

## **“Quruq dush”**

maqsad: ijobiy munosabatni yaratish va saqlash.

Ajrashish biz uchun juda achinarli

Ammo xayrlashish vagti keldi.

Shunday qilib, biz ko‘nglimiz qolmasligi uchun

Quruq dush qabul qilish kerak.

Bolalar o‘tishi tavsiya etiladi quruq dush.

Ko‘p rangli oqimlar yuzingizga va qo‘llaringizga tegishini his eting. Hamma qayg‘u, xafagarchilik, zerikish va xafagarchilik ortda qoldi. Va sizga tetiklik, faollik va quvonch yuklanadi. Ajoyib mamlakatda olingan yaxshi kayfiyat to‘lovi sizda uzoq vaqt saqlanib qoladi.

## **Kayfiyat termometri**

Maqsad: pasayish psixo-emotsional stress.

Yetakchi. Yaqindan qarang - bu yerda nima ko‘rsatilgan? To‘g‘ri, bu termometr. Va bu nima uchun? To‘g‘ri, haroratni o‘lchash uchun, lekin bugun siz bilan birgalikda biz noodatiy

termometrni chizamiz - bu bizning kayfiyatimizning termometri. Sizning kayfiyatingizni tavsiflaydigan qalam rangini tanlashingiz kerak. Biz termometrning yarmidan ko‘pini siz tanlagan rang bilan bo‘yaymiz - bu sizning dars boshidagi kayfiyatingiz aynan shunday bo‘lganligini anglatadi. Yaxshi rahmat!

2-bosqich. Motivatsion.

Bugun men sizni mamlakatga taklif qilaman "*Yaxshi kayfiyat*"... Ammo u yerga borish uchun, yo‘lda siz bilan chamadonni yig‘ib olaylik.

### **III BOB. BOLALARDA TARBIYA TURLARINI O'YIN ORQALI SHAKLLANTIRISH METODIKASI**

#### **3.1. Tarbiya turlari**

**Tarbiya** – ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan xolda, tarbiyachining tarbiyachi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqotidir.

Biror bir maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonining moxiyatni va vazifalari tarbiyachi tomonidan rejalashtiriladi va tartibga solinadi:

Talabaning qaysi hislatini shakllantirish yoki yo'qotish maqsadida rejalashtiriladi.

Shu hislatlarni tarbiyalash yoki yo'qotish uchun xizmat qiluvchi manbalarni izlab topiladi. Belgilangan maqsad uchun xizmat qiladigan nazariy va amaliy manbalarni qaysisini va qayerda ishlashni rejalashtiriladi.

Bunday rejaga solinib olib borilgan tarbiya moxiyatini ta'limgarbiya tizimi, jamiyat va insonlarning intellektual va jismoniy faoliyati tashkil kiladi.

Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nixoyatda beqiyosdir. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini sekin-asta ko'nikmaga aylantirib borish lozim. Insonning mushoxada qilish qobiliyatini tarbiyalaydi va mushoxada qilish aqlni peshlaydi. Aql ongni saqlaydi. Ong esa moddiy va ma'naviy manbaga aylanadi. Shu tarzda inson asta-sekin takomillashib, komillikka erishib boradi. Ammo buning uchun tarbiyachi va tarbiyalanuvchidan uzoq davom etadigan mas'uliyat, sharaflı mehnat va qunt, irodani talab etadi. Buning uchun bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish zarur. Ma'naviy, insoniy sisatlarning shakllanishida oiladagi, atrofdagi, jamiyatdagi muhit va bolalarga bo'lgan munosabat muhim rol o'ynaydi. Ota-onalarimiz va atrofdagilarning bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini ko'rgan bola shunga qarab shakllana boradi. Ular avval kattalarga taqlid qiladilar. So'ng sekin-asta qilayotgan ishlarining moxiyatini anglaydilar. Bolalarni to'g'ri tarbiyalashda ota-onaning ongi, ma'naviyati, bilimi, tarbiyalanganligi muhim ahamiyatga ega.

Aniq bir maqsadga qaratilgan tarbiyaning samaradorligi tarbiyachining qanday metoddan foydalanishiga bog'liq. Tarbiya turlari quyidagilardan iborat:

**Axloqiy tarbiya** - Axloq insoniyat ma'naviy madaniyat ko'rinishlaridan, ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, u kishilarning tarixan qaror topgan xulq-atvori va yurish turishining ifodalaydigan va jamiyat munosabatlarini aks ettiradigan muayyan qoidalar yig'indisidir.

Axloq tarbiyasining maqsadi shaxsnii axloqiy shakllantirishdir. Shaxsning muhim ma'naviy sifatlari bo'lgan axloqiy ong, xissiyot va xulqni shakllantirish, vatanparvarlik, vatanga muhabbat, O'zbekiston gerbi, bayrog'i madhiyasiga hurmat, insonparvarlik, ongli intizom va boshqa tuyg'ularni kamol toptirish axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalarini tashkil qiladi. Shu ma'noda axloq murakkab ko'p qirrali jamiyat xodisasi bo'lib, u o'z ichiga odamning jamiyat jamoa va boshqa kishilar bilan aloqlarini belgilovchi qoida va talablarni qamrab oladi. «Axloq» arabcha «Xulq» so'zini ko'plik shakli bo'lib, insonning nafsida, tabiatida hosil bo'lgan va takrorlanadigan ish faoliyatidir.

Odob odamning jamoat, el -yurt orasida o'zini qanday tutishi, muomala qilishi, o'z turmush sharoiti va bo'sh vaqtini qanday tashkil etishi, xullas, tashqi jixatdan muloyim va yoqimli bo'lishini bildiradi.

**Mehnat tarbiyasi**- O'zbek xalqi asrlar davomida mehnat insonning moddiy va ma'naviy ehtiyoji ekanligini tushunib yosh avlodni mustaqil hayotga tayyorlashga alohida e'tibor beradi. U o'z hayotida turmush kechirish uchun ishlab chiqarish vositalarni yaratish zarurligini turmushda o'z talablarini qondirish uchun mehnat qilish kerakligini anglatadi. Mehnatni shu ma'noda anglash qadimgi jamiyatga xos asosiy xususiyat bo'ladi. Davr o'tishi, ijtimoiy-siyosiy hayotda o'zgarishlar yuz berishi aqliy mehnat tarbiyasi jismoniy mehnat tarbiyasidan ajraldi. Natijada mehnat va mehnat tarbiyasiga munosabat o'zgardi, bolalarni turli ijtimoiy mehnatga tayyorlash birinchi o'rinda qo'yildi. Inson va jamiyatning yashashi barqarorlashishi uchun mehnat qilish, mehnatni sevish kamolotining me'yori bo'ldi, mehnat ishtirok etish salomatlik vositasi hisoblanadi. Bu g'oyalar xalq yaratgan «Mehnat farog' at

chirog‘i», «Ish-insonning gavhari», «Daraxt yaprog‘i bilan ko‘rkam, inson mehnati bilan», «Odamni mehnat bezaydi», «Mehnat hurmatning toji», «Yer xazina mehnat kaliti», «Yigit husni mehnatda» kabi maqollarda o‘z ifodasini topgan.

Mehnat insonni uch balodan: yurak siqlishi, axloqiy buzilish, muxtojlikdan saqlaydi. Mehnat qilmaganlarga, mehnatni sevmaganlarga, boshqalar mehnatini tatimoqchi bo‘lganlarga salbiy munosabatlarni «Bekorchidan xudo bezor», «Tekinxo‘rga shafqat yo‘q», «Baxt yalqovga begona» kabi maqollarda, bir qancha xikmatlarda o‘z aksini topgan. (Masalan: «Yalqov ishyoqmaslar ikki farzand yetishtiradilar: zorlik, badbaxtlik», «Mehnatni sevgan har kishi har turli noqobil ishlardan tortinmaydi» va x.k). Turli kasblarga mehr-muhabbat tarbiyalashda kasb-hunar tanlashga yo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘llash bu yosh avlodni xalq xo‘jaligi va madaniyatining eng muhim tarmoqlari bilan xalq xo‘jaligi va madaniyatining ayrim kasblarga ehtiyojlari bilan tanishtirishga muvofiq iboratdir.

**Nafosat tarbiyasi** - Ta’lim-tarbiyaning boshqa shakllari kabi estetik tarbiya ham o‘z diqqat e’tiborini yakka odamga va ijtimoiy guruhgaga qaratadi. Estetik tarbiya ham umuminsoniy va milliy qadriyatlarni qaror topishga xizmat qiladi. Ma`lumki, tarbiya inson ongiga xatti-harakatiga, xulq-atvoriga ta’sir o’tkazishini o‘z oldiga maqsad va vazifa qilib qo‘yadi. Estetik tarbiya ham ana shu umumiyy maqsad va vazifalarni tarkibiy qismi sifatida amal qilib, tarixiy ijtimoiy jihatdan ahamiyatga molik hodisani anglatadi.

O‘zbekiston mustaqil davlat bo‘lib, qaror topayotgan hozirgi paytda estetik tarbiyaning mavqeyi yana ham ortib boraveradi.

1. Mustaqillik sharoitida inson omilining ortib borishi uchun shart-sharoitlar vujudga kelayapti, hayotning barcha jabxalarida faoliyat ko‘rsatayotgan odamlarning ezgu fazilatlari ongliligi faolligi ijodiy yaratuvchi qobiliyati sezilib turibdi.

2. O‘zbekiston umumiyy madaniyat darajasi yuksalib borish jarayonida yangi texnika va texnologiya ishlab chiqarishni tashkil etishning zamonaviy usullari tobora takomillashib borayapti.

3. Hozirgi davr ilmiy-texnik inqilobi sharoitida elektronika avtomatika kibernetika informatika kabi bilim soxalarining rivojlanishi ishlab chiqarish soxasini tubdan qayta ko‘rishga

imkoniyat yaratib berayapti. Bu hol ishlab chiqarishda band bo'lgan odamlarning ruhiy xolatining ham tubdan o'zgarishini kasbkorlik ijtimoiy ruhiy ahloqiy va estetik xolatlarning vujudga kelishini taqozo etadi.

4. Radio, televideniya, kino ommaviy axborot vositalarining turmushdan keng o'rinni olishi natijasida badiiy axborot hajmining ham keskin ortib borishi estetik tarbiya ahamiyatining tez suratlarda o'sishini ta'minlaydi.

Avvallari estetik tarbiya o'ta tor va bir tomonlama talqin qilinlar ya'ni uni san'at asarlarini to'g'ri idrok etish bu bilan alohida lazzatlanish yoki biror san'at turini bilib olib muayyan badiiy ko'nikmalarga ega bo'lish doirasida intiqo etilar edi. Ba'zan estetik tarbiyasiga odamlarda yuksak estetik did farosatni shakllantirish sifatida qaralar edi. Bularning barchasi badiiy estetik tarbiya vazifasi va maqsadlari doirasiga kiradi.

Badiiy tarbiya estetik tarbiyaning tarkibiy qismi bo'lib, u estetik tarbiyaning mazmunini va maqsad qo'llanishini to'la ifodalaydi. Badiiy tarbiyaning asosiy maqsadi munosabatlarni san'at vositalari yordamida shakllantirishdir.

Estetik tarbiya bu san'at tabiat va jamiyat xodisalaridagi nafosatlilikni idrok etish tushunish ijod qilish va hayotini estetik qonun qoidalar asosida tashkil qilishdir. Estetik tarbiya vositalari xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Hayotimizdag'i estetikaning ko'lami kengaya borgani sari estetik ongimiz chegaralari ham kengaymoqda. Shu munosabat bilan estetik tarbiya vositalari ko'lami ham rivojlanib bormoqda. Estetik tarbiya asosiy vositalariga tubandagilar kiradi:

**Estetik tarbiya-** Bolalar hayotidagi voqyelikdagi go'zallikni tushunishga, sevishga tabiatda va turmushdagi mexnatda ijtimoiy hayotdagi kishilar xatti-xarakatida bolalarga tushunarli bo'lgan go'zallikni ko'ra bilishga o'rgatish, ularda estetik xis, did, munosabatini tarbiyalash, kuchlari yetganicha xayotda go'zallik yaratishda faol ishtirot etish.

Bolalarni badiiy ijodiyotning turli janrlarida yaratilgan san'at asarlarni ko'rish, tushunish va sevishga o'rgatish orqali o'zlarida estetik ong asoslarini shakllantirish chiroylilikni xunuklikdan, g'amginlikni xursandchilikdan farqlay olish ranglarni shakl

tovushlari bir-biridan ajratib bilish kabi sensor etalonlari bilan tanishtirib boriladi. Bolani san'atning turli soxalari: o'yin, ashula, she'r, o'qish, qayta hikoya qilish, ijodiy faoliyat kabilardan yana ham faolroq harakat qilish va o'zini ko'rsata bilishga o'rgatish. Bu orqali bolalarda badiiy ijobjiy qobiliyatni, xayolni o'stirish, ko'rish xotirasini rivojlantirish.

Estetik tarbiya mazmunini mukammallashtirish shart-sharoitlari tubandagilar:

Estetik sikl predmetlari dasturini milliy mакtab talablari asosida mukammallashtirish. Ashula va musiqa, tasviriy san'at, o'zbek xalq amaliy san'ati, o'zbek adabiyoti dasturlarida o'rta Osiyo mutafakkirlari va ma'rifatparvarlarining asarlari munosib o'rin olishi lozim.

San'at sikli predmetlarini o'rganish shakl va metodlarini milliy qadriyatlar, ma'naviyat nuqtai nazaridan ko'rib chiqish. Ustoz-shogird sistemasini zamonaviy talabga mos qilib mukammallashtirish.

Yangi darslik, xrestomatiya, o'quv metodik qo'llanmalar yaratish. Ularda o'rta Osiyo mutafakkirlari, ma'rifatparvarlar, san'atkorlarining ijodiy munosib o'rin olishi lozim.

O'quv fanlar ichida fanlararo aloqalarni unumдорli qilish.

Dars jarayoni bilan sinfdan tashsari ishlarni uyg'unlashtirish, ularni yagona prinsiplar asosida amalga oshirish.

Maktabdagagi barcha fan o'quvchilari shu jumladan shu jumladan adabiyot, musiqa, tasviriy san'at, tarbiyalarining madaniy estetik saviyasini oshirishga alohida e'tibor berish.

Badiiy ma'lumot, ta'lif va estetik tarbiyaning moddiy texnik asoslarini ta'minlash.

O'quvchilarni badiiy estetik rivojlanganlik tarbiyalanganlik darajasini ilmiy asoslangan me'yorlarni ishlab chiqish.

San'at orqali badiiy tarbiyalash bilan bog'liq vositasida estetik tarbiyalash o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash.

1-9-sinf o'quvchilarining O'zbekiston respublikasi tarixi, madaniyati, ma'naviyati, milliy urf-odatlarni hisobga olgan holda axloqiy estetik idealarni shakllantirish.

Estetik tarbiya vazifalarni o'quvchilarda ma'naviyat shakllantirish ishlariga xizmat qilishini ta'minlash.

Nafosat tarbiyasi matabda o'qitiladigan barcha darslar jarayonida olib boriladi. Lekin, har bir predmetning xususiyatiga qarab estetik tarbiya vositalari usul va metodlari o'ziga xos bo'ladi. Masalan, tasviriy san'at darslari narsaning o'ziga qarab rasm chizish, dekorativ rasm chizish, tema asosida rasm chizish, tasviriy san'atdan suhbatlar kabi turlarga bo'linib, xar bir rasm chizish darslarida nafosat tarbiyasining o'ziga xosligi mavjud.

Tasviriy san'at darslarining asosiy vazifalari: o'quvchilarning san'at bilan muloqatda bo'lishi, rassomlik haykaltaroshlik, arxitektura, grafika, xalq amaliy bezak san'ati soxasida faoliyat, ko'nikma va malakalarini egallash, tasviriy san'at tarixi haqida ma'lumot berish, atrofdagi hayat va san'atni estetik idrok qila biliшdir. o'z hayatini go'zallik qonunlari bo'yicha tashkil qilish va h.k. hisoblanadi.

**Jismoniy tarbiya-** Salomatlikni mustahkamlash, organizmni chiniqtirish va o'qituvchilarning jismoniy rivojlanishiga yordam berish. Harakat ko'nikmalarini va malakalarini shakllantirish va takomillashtirish. Jismoniy tayyorgarlik, sport turlariga bo'lgan qiziqish va takomillashtirish. badan tarbiya – sog'liqi mustahkamlashga, odam organizmini uyg'un ravishda rivojlantirishga qaratilgan umumiylar tarbiyaning uzviy qismi. Jamiyatdagi jismoniy madaniyat ahvolini bildiruvchi ko'rsatkichlardan biri. Jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari: jismoniy mashg'ulotlar, organizmni chiniqtirish, mehnat va turmush gigiyenasi. Jismoniy tarbiya aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiya bilan qo'shib olib boriladi.

**Ekologik tarbiya-** Ekologiya, atrof-muhit, jonli-jonsiz tabiat, ekologik ong ekologik madaniyat, kamolot, shaklar, usullar. Ekologik tarbiya ekologiya fanini maqsadini amalda yuzaga keltirish, atrof-muhitni biz xohlagan darajada tabiiyroq, ekologik toza bo'lisdagi ishlarni o'rgatadi . Dastlabki ekologik ta'limgarbiya orqali bolalar tabiatning tarkibini, uning in'omlarini va ularning qanchalik ahamiyatga ega ekanligini tushunib yetadilar. Yoshlarga ekologik ta'limgarbiya berishda milliy va umuminsoniy qadriyatlardan keng foydalanishimiz zarur ekologik bilimlarni berishda afsonalar, rivoyatlar, xalq udumlari, maqol, tabiat

bayramlardan misollar keltirib hayotga bog' lab berilsa, bolalar ongiga yaxshiroq yetib boradi.

**Iqtisodiy tarbiya-** Iqtisodiy tarbiya o'quvchilarda tejamkorlik mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob va ayni shu kabilar haqida fikrlay olishni kamol toptirish. Iqtisodiy tarbiya mazmuni haqida sharq mutaffakiri Abu Nasr al-Farobi insonga yashash uchun juda ko'p narsalar kerakligini va bularni vujudga keltirish yo'lida boshqa shaxslarga murojaat etish zarurligini e'tirof etadi. Bu o'rinda olim iqtisodiy aloqa zaruriyatini ko'rsatib o'tgan edi. U o'zining «Baxt-saodatga erishuv yo'lida» asarida shunday yozadi: «Inson o'z mablag'ini to'g'ri sarflashni bilishi kerak. Pul sarflashda qizg'anchiqlik qilish xasislikka olib keladi. Pullarni rejasiz ishlatish esa insonni beboshlikka yetaklaydi.»

Ko'rinish turibdiki, o'tmisht mutafakkirlari maktab va oila sharoitlarida bolalarning iqtisodiy tafakkurini kengaytirish, ularni tejamkorlikka, ishbilarmonlikka, iqtisodiy hisob-kitobga o'rgatish, hayotiy tajriba asosida amalga oshirish lozimligiga e'tibor bergenlar.

### 3.2. Aqliy tarbiyaga oid ta'limiy o'yinlar

#### «Chapaklar»

o'yini. Bu o'yin o'quvchilarning eshitib, sanash qobiliyatlarini oshiradi. Necha marta qarsak urilsa o'sha son hosil bo'ladi. Bolalar buni diqqat bilan tinglab, ichlarida sanab turadilar. To'g'ri sanagan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

#### «Topishmoq»

o'yini ham juda qiziqarli. O'quvchilardan biri, menda hammasi bo'lib 5 ta cho'p bor, 1 qo'simda 3 ta, boshqasida nechta deb so'raydi. Bolalar javob beradilar. O'yin shu tariqa davom etadi.

#### «Mohir hisobchi»

O'yin mazmuni: Sinf taxtasiga 3 ta ustundan iborat misollar yoziladi. Harr bir qatoridan bittadan o'quvchi chiqariladi va tegishli ustundagi misolni yechadi. Tez bajargan o'quvchi mohir hisobchi bo'ladi.




**Shoxda qolar nechtasi?(tayyorlov guruh)**  
U shoxdadir 7 qush.  
Bu shoxdadir 3 qush.  
Uchib ketsa 5 tasi,  
Shoxda qolar nechtasi!



### Baliq

A'zam tutdi 4 sazan.  
Sulton tutdi 3 cho'rtan.  
Bolta tutdi 2 laqqa.  
Nechta baliq chiqdi qirg'oqqa?



### Anor

Oyim berdi 5 anor.  
Uyimda ham 3 ta bor  
Sanab bilsang ayta qol  
Menda nechta anor bor?



### Yong'oqlar

Qo'limda bor 5 yong'oq.  
Cho'ntagimda 2 ta  
O'rtog'imda ham shuncha  
Hamma yong'oqlar qancha?



### «Tarbivachi » o'yini.

Bu o'yindan maqsad, geometrik shakllarni: uchburchak, kvadrat, doira kabi turga ajrata olishga o'rgatish.

Bu o'yinda bolalardan biri tarbiyachi vazifasini o'taydi. U bolalarga biror shaklni ko'rsatadi va uni nima deb atalashini so'raydi. Bolalar tarbiyachiga javob bergandek javob beradilar shu tariqa boshqa bolalar ham tarbiyachiga bo'lib o'yinni davom ettiradilar.

### **«Kim tezroq aytadi» o‘yini.**

Bu o‘yindan maqsad, tez va to‘g‘ri aytish malakasini o‘stirish.

Bu o‘yinda tarbiyachi sonlarni aytadi. Tarbiyalanuvchilar esa aytigelgan sondan oldin keladigan, keyin keladigan sonlarni aytishi kerak. Masalan, sanaganda 4 dan oldin qaysi son keladi? 8 dan keyinchi? Kabi savollarga javob bergen tarbiyachi g‘olib bo‘ladi. Matematik o‘yinlar, avvalambor guruhda o‘tkazilgan har bir mashg‘ ulotni mustahkamlash uchun o‘tkaziladi.

### **«Qo‘limda nima bor?».**

**Ko‘zlangan maqsad:** «uzun – qisqa», «yo‘g‘on – ingichka», «katta – kichik», «o‘ng – chap» tushunchalarini va fazoga oid tasavvurlarni mustahkamlash, badan sezgilarini rivojlantirish.

**Zarur jihozlar:** tabiiy narsalar – toshlar, yong‘oqlar, tayoqchalar...

O‘yin mazmuni: bola qo‘llarini orqasiga qilib turadi. Tarbiyachi unga bir xildagi ikki narsani tutqazadi. Masalan, kattaligi bilan farq qiladigan toshchalar: biri – kichik, ikkinchisi – katta. Bola ularni ko‘rmasdan, o‘ng qo‘lida katta tosh, chap qo‘lida kichik tosh borligini aytish kerak. Uning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri aytganligini do‘srtlari tekshiradilar. Tarbiyachi boshqa tarbiyalanuvchi qo‘liga uzunligi bo‘yicha farq qiladigan (lekin yo‘g‘onligi bir xil) cho‘plarni beradi yoki uzunligi bir xil, yo‘g‘onligi har xil ikkita qalam beradi. Har bir kichkintoy 2-3ta shunday mashqlarni bajaradi. Kim birorta xatoga yo‘l qo‘ymasa, o‘yinda

g‘olib hisoblanadi. (O‘yin 3-4 daqiqa davom etadi.)

### **"Qayerda nima qila olaman?"**

**Maqsad:** Fe’llarni nutqda ishlatish qobiliyatini, ko‘nikmalarini rivojlantirishdir eshitish, ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar.

O‘yinning borishi : Bolalar tarbiyachining savollariga javob berishadi: «Bolalar maydonchasida nima qilsam bo‘ladi? » (dam olish, o‘ynash, sayrga chiqish, yugurish, muloqot qilish va h.k.), “Tabiat qo‘ynida nima qilaman “(shifoxonada, bog‘chada va hokazo) nima qilaman? ”.

### **"Unli tovushlar"**

Maqsad - unli tovushlarni so'zdan ajratish bo'yicha ko'nikimalarni rivojlantirish.

Oyning borishi - tarbiyachi bitta, ikki yoki uchta so'zdan iborat so'zni nomlaydi va barchasi bog'liqdir.

Maktabgacha yoshdagি bolaning individual qobiliyatları, bolalar unli tovushlarni qulq bilan aniqlaydilar va ularni chaqirishadi.

### **"Qo'shimcha so'z"**

Maqsad - eshitish qobiliyatini rivojlantirish, so'z boyligini boyitish va tushuntirish

O'yining borishi – tarbiyachi so'zlar zanjirini tuzadi, bolalar shu so'zlardan ortiqchasini topadilar.

Masalan: oktyabr, yanvar, yoz, iyun, avgust; jinsi, kiyim, poyabzal, sviter, palto

### **Kim nimani yeydi?**

**Maqsad** – bolalar fikrlashni rivojlantirish, haqidagi bilimlarni mustahkamlaydilar.

Tarbiyachi hayvonlar va ular yeydigan maxsulotlarni rasmini ko'rsatadi bolalar qaysi hayvon nimani yeyishini topishlari kerak.

### **"So'zlar teskari."**

Maqsad – Bolalarda majoziy fikrlashni, tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish.

Tarbiyachi so'zlarni aytadi va bolalar shu so'zlarni teskarisini aytadilar.

Masalan: tor -qalin, uzun - kalta va boshqalar.

### **"So'zlarni umumlashtiring."**

Maqsad - og'zaki va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, so'zlarni birlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirish .

Tarbiyachi – so'zning jumlalarini almashtirib bolalarga aytadi bolalar shuni to'g' ri tarzda aytishlari kerak

Masalan: sigir, ot, qo'chqor uy hayvonlari.

## **Xazinani toping.**

Maqsad - mantiqiy fikrlash, fazoviy yo'nalishni rivojlantirish, yo'nalish bo'yicha harakat qilish qobiliyatini shakllantirish uchun o'ynaladi.

O'yining borishi - xonada ob'yeqt yashiringan va uning xaritasi chizilgan

bolalarning vazifasi xaritadan foydalanib ob'yeckni topishdir. Vazifa murakkablashishi mumkin.

## **"Yo'qolgan o'yinchoq"**

Maqsad - tafakkurni rivojlantirish, diqqatni jamlash qobiliyati.

Tarbiyachi bolaning oldiga bir nechta o'yinchoqlar qo'yadi, ularga diqqat bilan qarab, eslab qolishni iltimos qiling, keyin bola ko'zlarini yumadi, bitta o'yinchoq olib tashlanadi va qaysi o'yinchoq yashiringanligini ko'rishni so'raydi.

O'yinchoqlar almashtirilsa, bu o'yin murakkablashishi mumkin, maktabgacha yoshdagি bola esa eslashi kerak narsalar qanday ketma-ketlik edi.

## **«Uchayaptimi?» o'yini**

**Ko'zlangan maqsad:** «baland – past», «yuqori – quyi» kabi tushunchalarni mustahkamlash.

Mashq mazmuni: tarbiyachi bolalarga o'yinchoqlarni ko'rsatish bilan birga savollar beradi. Masalan, qaldirg'ochni ko'rsatib so'raydi.

- «Uchayaptimi?»

Javob berishga taklif etilgan bola aytadi:

- Qaldirg'och balandda uchmoqda, daraxt baland, uydan baland!

So'ngra tarbiyachi «xonqizi» qo'ng'izini ko'rsatadi. Kichkintoy javob beradi: «Xonqizi past uchadi, u o'tlar ustida uchadi» va hokazo: Mashq 2-3 daqiqa davomida o'tkaziladi.

## **«Nima o'zgaradi?».**

**Ko'zlangan maqsad** bolalarning ko'rish, diqqat – e'tibor idrokini va xotirasini takomillashtirish, ularni savollarga to'liq javob berishga o'rgatish.

O'yin mazmuni bolalar ikki guruhgaga bo'linib, navbat bilan tarbiyachi savollariga javob beradi. Savol berishdan avval, tokcha ustiga bir qancha narsalar qo'yiladi. Masalan, olma, sarg'ish katta nok va ko'kish tus kichik nok, tarvuzni terib chiqadi. Kichkintoylar bularni ko'rib turadilar. So'ngra, o'yinda qatnashuvchilarga, ya'ni birinchi guruh a'zolariga ko'zlarini yumib urish taklif etiladi. Bu vaqt ichida tarbiyachi katta nokni olib qo'yadi. Bolalar ko'zlarini ochishganda: «Nima o'zgardi?» deb savol beriladi. Tepadan chaqirilgan bola narsalar qo'yilgan joyga qarab, qanday o'zgarish bo'lgani haqida to'liq javob berishi kerak: «Sariq tusli katta nok yo'q bo'lib qoldi». So'ngra ularning o'rni almashtiriladi va boshqa turdag'i shunga o'xshash bolalarga savol beriladi.

### **«Ko'z – yumuq, Qo'l ishda».**

**Ko'zlangan maqsad:** «uzun – qisqa», «yo'gon – ingichka», «katta – kichik» kabi tushunchalarni mustahkamlash.

**Jihozlar:** qalamlar, cho'plar, kitoblar, koptoklar, qo'g'irchoqlar.

O'yin mazmuni: o'yinda bolalar qaysi qalam uzun, qaysi biri kalta ekanligini qo'llarini narsalar bo'ylab yurgizish orqaligina aniqlashlari kerak. Buning uchun uzunligi bo'yicha sezilarli farq qiladigan qalamlar tanlab olinadi. Avvalo, tarbiyachi kichkintoylarga narsalarni juft-juft qilib ko'rsatadi. Masalan: bir juft qalam. Bolalar qalamlarni qo'lga olib, diqqat bilan ko'rib chiqadilar, ko'z bilan chandalab, ularning uzun-qisqaligini solishtirib ko'radilar. So'ngra, tarbiyachi javob berish uchun chaqirilgan bolaga «ko'zingni yum, qani topchi, men senga qanday qalam berdim, uzunmi yoki kaltami?» deb savol tashlaydi. U qalamni paypaslab ko'radi, hozirgina ko'zi bilan ko'rganini tasavvurida jonlantiradi va qalamlarda qaysini uning qo'lida ekanligini aytadi. Bola javob bergach, ko'zini ochadi. Har qanday sharoitda ko'rsatilgan qalamlar yana qayta solishtiriladi. Xuddi shunday tartibda 2-3 bola javob berishga chaqiriladi va tarbiyachi ularga boshqa qalamlar juftini ko'rsatadi: jajjilar ularni solishtirib ko'rganlaridan so'ng, ularga ko'zlarini yumish taklif qilinadi. Endi, qaranglar, men qo'linda qanday qalamlarni ushlab turibman, uzunimi yoki kaltanimi?

Xuddi shunday tartibda boshqa narsalarning ham yo'g'on- ingichkaligi solishtiriladi. Masalan: kitoblar, daftarlar, o'lchami

bo'yicha qaysi koptok katta va hokazo. O'yin 4-5 daqiqa o'tkaziladi.

### **«Topshiriq bo'yicha o'yin».**

**Ko'zlangan maqsad:** bolalarda narsa – buyumlarning uzunligi, kengligi, balandligini farqlash malakalarini mustahkamlash.

**Jihozlar:** juft o'yinchoqlar, olmalar, fil o'yinchoqlari va hokazo juft qirqilgan rasmlar, daraxtlar, taxtachalarva boshqalar. O'yin mazmuni, tokchaga narsalar terib qo'yiladi, tarbiyachi bolalardan ularni birin-ketin olib kelishlarini so'raydi.

1. Baland askar haykalchasini, 2. Bo'yin past daraxtini, 3. Eniga keng taxtachani, 4. Kalta qalamni, 5. Ensiz o'Ichagichni, 6. Uzun arqonchani, 7. Qizil olmani, 8. Sariq tusli nokni, 9. Chap qo'lda kalta uychani, o'ng qo'lda esa jo'jani.

Boshqa bolalar topshiriqlarni to'g'ri yoki noto'g'ri bajarilayotganligini kuzatib turadilar. Har bir kichkintoy 3-4 topshiriqni bajaradi, agar u adashmasa, bayroqcha bilan taqdirlanadi. Qaysi bola ko'p bayroqcha olsa, demak, u yutib chiqqan bo'ladi. Bolalar o'yin topshiriqlarini muvaffaqiyatli bajarishlari uchun, oldindan hamma o'yinchoq va narsalarning nomini atash va ko'rsatish tavsiya etiladi. O'yin 3-4 daqiqa ichida o'tkaziladi.

### **«O'yla: bu qanday qivofa?».**

**Ko'zlangan maqsad:** geometrik shakllarni paypaslab ko'rib, ajratishni o'rgatish.

**Jihozlar:** yog'och, plastmassa, yoki qalin qog'ozdan yasalgan geometrik shakllar.

O'yin mazmuni: bola o'z guruhiga qarab turadi va qo'llarini orqasiga qiladi. Tarbiyachi uning qo'llariga geometrik shakllarni beradi. Bola ularni paypaslab ko'rib, boshqalarga ko'rsatmasdan nomini aytadi. Kichkintoylar esa o'z oldiga geometrik shakllar yig'indisidan u aytganni topib, qo'llariga oladilar. Javob berishga chaqirilgan ishtirokchi ham o'zi topgan shaklning nomini aytadi va ko'rsatadi. Agar to'g'ri topgan bo'lsa, bayroqcha beriladi. So'ngra, qo'shni qatordan yana bir qatnashchi chiqariladi. Bayroqchalar soni ko'p bo'lgan qator yutib chiqqan hisoblanadi.

### **«Qaysi qo‘limda narsalar ortiq?».**

**Ko‘zlangan maqsad:** ikki toifa narsaning bog‘liqligini taqqoslashni mashq qildirish.

**Jihozlar:** mayda narsalar.

O‘yin mazmuni: bolalar ikki guruhgaga ajratiladi. Ulardan har biri navbat bilan vakilni tarbiyachi javoni yoniga yuboradi. Chaqirilgan bola qo‘llarini orqasiga qilib turadi. Tarbiyachi, undan keyin bolaladan birontasi uning kaftiga turlicha buyumlar qo‘yadi. Avvalo, bola qaysi qo‘lida ko‘p narsa borligini ko‘z bilan chamlab, aniqlab olishi kerak, so‘ngra narsalarni ikki qatorga terib chiqadi ularni solishtiradi. Qayerda ortiq? Qayerda kamligini chamlab aytadi.

**Tarbiyachi:** Qanday qilsak, kalta qatordagi narsalar, uzun qatordagi narsalarga tenglashadi (kalta qatorda qancha narsa yetmayotgan bo‘lsa, shuncha narsa qo‘shish kerak)? Nima qilinsa, uzun qatoridagi narsalar xuddi kalta qatordagicha narsa qoladi? To‘plamlar tenglashtiriladi. Topshiriqni bajarish mobaynida xatoga yo‘l qo‘ymagan guruh yutib chiqqan hisoblanadi, o‘yin 4-5 daqiqa davom etadi.

### **«Xaltachadan ol» mashqi.**

**Ko‘zlangan maqsad:** paypaslab ko‘rib, bitta yo ko‘p narsalarni qo‘lga olish.

**Jihozlar:** tugmachalar, yong‘oqlar, boshqa kichik hajmdagi narsalar solingen xaltacha.

O‘yin mazmuni: murabbiy bolalarga xaltacha ichiga qaramasdan ko‘pincha yong‘oqlar olishni taklif qiladi. Ular paypaslab ko‘rib, yong‘oqlarni olib, kaftlarini ochib ko‘rsatadilar. Bajarilayotgan ishlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riliqi o‘rtog‘i tomonidan tekshiriladi. Yong‘oqlar qayta xaltachaga solinadi. So‘ngra topshiriq bajariladi: bitta yong‘oq olish, bir qancha tugmachalar, ko‘pincha sharchalar, boshqa narsalar olish.

### **«Tuk - tuk» o‘yini**

**Jihozlar:** 1 tadan 4 tagacha narsa chizilgan qalin qog‘ozchalar. (Har bir bolada bittadan).

O'yin mazmuni: tarbiyachi xontaxta yoki javon ustiga taqillatadi. Bolalar esa ichlarida sanaydilar va tarbiyachi necha marta taqillatgan bo'lsa, shuncha buyum rasmni chizilgan qog'ozchasi bor bola uni ko'taradi. Bolalardan bir qismi og'zaki javob berishi kerak. Masalan: «Siz uch marta taqillatingiz, menga esa uchta paxta chanog'i chizilgan qog'ozcha bor». Mashq 3-5 daqiqa davomida o'tkaziladi.

### **«Shuncha doirachalar ajrat».**

**Jihozlar:** bolalarga son yozilgan qalin qog'ozchalar va geometrik shakllar beriladi. Tarbiyachi ixtiyorida turli narsalar (rasmlar yig'indisi, o'yinchoqlar) bo'ladi.

Mashq mazmuni I-ko'rinish. Tarbiyachi tokcha ustiga 3ta qo'g'irchoqni qator qo'yib chiqadi. Bolalar esa javon ustiga 3 ta doiracha qo'yadi.

II-ko'rinish. Tarbiyachi 2 ta qush rasmi solingan qog'ozchani ko'rsatadi. Kichkintoylar shuncha son yozilgan qog'ozchani ko'rsatadilar.

III-ko'rinish. (just-just bo'lib ishslash). Bola stol ustiga 2,4,3,4,6,2ta uchburghakni terib chiqadi. Javon atrofidagi boshqa bir bola xuddi shuncha miqdorda doirachalar bitilgan qog'ozchalarni ko'rsatadi.

IV-ko'rinish. Tarbiyachi 3 marta chapak chaladi: 5,1,2,4 marta. Bolalar chapakka ta'lluqli raqamli shaklni ko'rsatadilar.

Mashqning hamma variantini o'tkazish uchun 10-15 daqiqa sarflanadi.

### **«O'z juftingni top».**

**Ko'zlanganmaqsad:** qurish, eshitishidrokinimustahkamlash.

**Jihozlar:** bolalarning kiyimiga yoki ko'kragiga o'rnatilgan raqam yozilgan qalin qog'ozlar.

O'yin mazmuni: 10 kishidan iborat guruhlari o'ynaydilar. O'yin qatnashchilari bir-biriga qarama-qarshi tartibda tiziladilar. Birinchi qatordagi bolalarda raqam bitilgan qog'ozlar. Navbat bilan ikkinchi qatorda o'ynayotgan jajjilar chapak chaladilar. Hamma chapaklarni sanaydi, necha marta chapak chalingan bo'lsa, qog'ozida xuddi

shunday raqam ifodalangan bola endigina chapak cholgan bola oldiga yugurib keladi va ular o'yindan chiqadilar.

Qachon hamma bolalar o'z juftlarini topib bo'lganlaridan so'ng, o'yin yakunlanadi. O'yin qatnashchilari yutib chiqqan to'dani aniqlaydilar.

Izox. Bola uning qarshisida turgan o'rtog'ida nechta raqam yozilgan qog'oz bo'lsa, shuncha chapak chalishi kerak, aksariyat hollarda u justsiz qolishi mumkin. O'yin 6-8 daqiqa o'tkaziladi.

### «Shunchani ko'rsat».

**Kuzatilgan maqsad:** bolalarni narsalarning sonini ko'rish va eshitish orqali idrok qilishga o'rgatish.

**Jihozlar:** tarbiyachi ixtiyorida raqam yozilgan qog'ozchalarini, kichkintoylarda esa sanoq materiallari.

O'yin mazmuni: 1-ko'rinish. Tarbiyachi raqam yozilgan qog'ozchalarini ko'rsatadi, so'ngra ularni teskari qilib qo'yadi. Bolalar xotiralari bo'yicha sonli kartochkadagi doiralar sonini esga tushirishlari va shuncha bayroqchalari tanlashi kerak.

Qaysi qator bolalari topshiriqni tez va to'g'ri bajarsa, o'sha qator g'olib hisoblanadi.

O'yin 5-7 daqiqa davomida o'tkaziladi.

### «Kim haq?».

**Ko'zlangan maqsad:** bolalarning miqdor va sonni o'zaro bog'lay olish malakalarini tekshirish.

**Jihozlar:** raqam yozilgan qog'ozlar va o'yinchoqlar.

O'yin mazmuni: tarbiyachi tokcha ustiga 4ta to'rtburchakli shaklni terib chiqadi. Ular yoniga ayiqcha va tulki o'yinchoqlari o'tkaziladi. Ayiqcha oldiga tarbiyachi 3ta doira aks ettirilgan raqamlar yozilgan qog'ozlarni qo'yadi. Tulki oldiga esa 5 ta doirachali raqam yozilgan qog'ozchalar qo'yiladi.

Bolalarga topshiriq: to'rtburchakli shakllarni yasash, sanash, o'z javobini aytish va raqam yozilgan qog'oz orqali ko'rsatish, hayvonlardan kim haqli ekanligini aytish. Raqamli qog'ozlar va o'yinchoqlar almashтирiladi, mashq bir necha marta qaytariladi. Mashq uchun 3-4 daqiqa yetarli bo'ladi.

## **«Xaltachadan qancha o‘yinchoq olding?».**

**Kuzatilgan maqsad:** bolalarni narsalar miqdorini ushlab ko‘rib idrok qilishga o‘rgatish.

**Jihozlar:** har bir bolada sanashga mo‘ljallangan narsalar (toshchalar, tugmachalar, yong‘oqlar) va hokazo solingan xaltacha.

O‘yin mashqi: tarbiyachi faqat barmoqlar sezgisi orqali 4ta yong‘oqni xaltachadan olishni taklif qiladi. Bolalar topshiriqni bajaradilar. Yonq‘oqlarni xaltachadan oladilar vaxontaxtaga terib sanaydilar. So‘ngra o‘zaro tekshirish o‘tkaziladi.

Tekshirish bir necha bor qaytariladi. Biron marta ham adashmagan bolalar g‘olib chiqqan hisoblanadilar. O‘yin 4-5 daqiqa o‘tkaziladi.

### **Men va Mening oilam**

**O‘yinning maqsadi:** Tarbiyalanuvchilarning oila a’zolari haqida to‘liq tushunchaga ega bo‘lishadi, ular qanday kasb bilan shug‘ ullanishlari haqida bilim ko‘nikmalari oshiriladi.

**O‘yin qoidasi:** O‘yinda bolalar oila a’zolari haqida qisqacha aytil beradilar. 1 stol ustiga oila a’zolari kartochkalari, 2 stol ustiga oila a’zolari kasblari kartochkasi qo‘yiladi. 1 stol ustidagi oila a’zolari kartochkalari teskari qilib qo‘yiladi. 2 stol ustidagi kasblar kartochkalari teskari qilinmaydi. Bola ko‘zini yumib bitta kartochka oladi va u kartochkadagi qahramon kim ekanligini aytadi. Tanlangan kartochka qahramoni kasbini 2 stol ustidagi kasblar kartochkalaridan topadi?

Misol uchun:

Dadam – Nonvoy

Oyim-Tikuvchi

Akam- Xarbiy

## **«Tinch bajaramiz».**

**Ko‘zlangan maqsad:** bolalarni bitta ortiq, yoki bitta kam sonlarni aytish va terib chiqishga o‘rgatish.

**Jihozlar:** raqam yozilgan qog‘ozlar yig‘indisi, geometrik shakllar.

**O‘yin mazmuni:** O‘yinning asosiy sharti: geometrik shakllardan foydalaniib, bolalar tarbiyachining topshirig‘iga binoan birorta so‘z ishlatasdan, shakllarni ko‘rsatish orqali javob qaytaradilar.

Murabbiy jajjilarga savol beradi, ular esa javob beradilar. Qaysi qator kam xatoga yo'l qo'yib, ko'proq javob bersa, shu qator g'olib chiqqan hisoblanadi.

O'yin 5-6 daqiqa davom etadi.

### **«Nima o'zgardi?» o'yini.**

Bu o'yinda o'qituvchi qirqilgan harflardan doskaga so'zlar tuzadi, o'quvchilar shu so'zlarni ovoz chiqarib o'qiydilar va ko'zlarini yumadilar. O'qituvchi bu vaqtida harflarni o'zgartirish kerak. O'quvchilar ko'zini ochib bu so'zlarni tez o'qishlari va qaysi harflar o'rnini o'zgarganini aytib berishlari kerak bo'ladi. Masalan: «Lola» so'zi tuzilgan bo'lsa, o'qituvchi «L» harfini «b» harfi bilan almashtiradi. «Lola» so'zi «bola» o'qiladi. O'quvchilardan kim tez fikrlab, to'g'ri o'qib bersa, o'sha o'quvchi g'olib hisoblanadi.

### **«Eslab qol va gapirib ber!» o'yini.**

Bolalarga kichik syujetli va rasmlı kitobchalar beriladi. Bolalar uning rasmlarini ko'rib chiqadilar va asosiy mazmunni eslab qolishga harakat qiladilar. So'ngra kitobcha yig'ishtirib olinadi. O'quvchilar eslab qolganlarini gapirib beradilar. O'qituvchi shu o'quvchiga rasmlarni ko'rsatadi va rasm bilan o'quvchi gapirgan narsalar taqqoslanadi va o'quvchining esda saqlab qolish qobiliyati hamda nutqi baholanadi.

### **«Krossvord» o'yini.**

Biz «L – r» tovushlarini differentsiyalashga oid krossvord tuzamiz. Bo'yli, ya'ni yuqorida pastga tomon kataklarda «hayvonlar» so'zi yozilgan bo'ladi. Eniga tomon kataklarda esa har xil parranda va jonivorlar nomlarini bolalar yozishlari kerak. Bolalarning bu ishni oson bajarishlari uchun shu krossvord yechimiga oid rasmlar yo'lbars, sa'va, tipratikan, ilon, ayyiq, qarg'a va boshqalar. Krossvord yechimi topilgandan so'ng bolalarga shu narsalarning nomini yozish tavsiya qilinadi.

### **«Olmachalar» o'yini.**

Doskaga olma daraxti maketi ishlani, osib qo'yiladi. Olma daraxtining shoxlarida, olmalar osilib turishi kerak. Shu olmalar

orqasiga har xil so'zlar yozilgan bo'ladi. O'quvchilar ketma-ket chiqib, olmani oladi va orqasidagi yozuvni o'qishlari va so'zlardan gaplar tuzishlari kerak.

Masalan: fasl, olma, kuz, pishadi. Qaysi o'quvchi shunday so'zlarni o'z o'rnida to'g'ri gap tuza bilsa, o'sha o'quvchi yutgan bo'ladi. Bunday o'yinlar o'quvchilarni darsda olgan bilimlarni mustahkamlaydi, hamda ziyraklik va qiziquvchanligini ham oshiradi.

### **«Eshit va uni bajar».**

O'qituvchi bir nechta harakatni (3-5), ya'ni ularni ko'rsatmasdan ovozini chiqarib aytadi. O'yin qatnashchilari o'qituvchi qanday aytgan bo'lsa shu ketma-ketlikda bajarishlari shart. O'yinda xatoga yo'l qo'ygan o'quvchilar jarima ochko oladilar. Eng kam jarima ochko to'plagan o'quvchilar o'yinda g'olib topiladi.

Bolalar katta bo'limgan guruh yoki qatorda tizzalarini baland ko'tarib yuradilar. So'ngra signal bo'yicha baland qadam bilan yuradilar.

### **«Qo'ng'izlar».**

O'qituvchining «Qo'ng'izlar uchdi», - degan qo'ng'irog'i bo'yicha bolalar maydoncha bo'ylab har xil yo'nalishda yuguradi. «Qo'ng'izlar yiqilib tushdi» degan qo'ng'irog'i bo'yicha bolalar orqasiga yotadilar va qo'l, oyoqlari bilan erkin harakat qiladilar.

### **«Qushlar parvozi».**

Qushlar (bolalar) qanotlarini yozib butun maydoncha bo'ylab uchib yuradilar «Bo'ron boshlanadi!» degan qo'ng'irop berilishi bilan ular daraxtlarga chiqib yashirinadilar. O'qituvchi «Bo'ron bosildi», deyishi bilan qushlar shoxlardan tushadilar va uchishni davom ettiradilar.

Ko'rsatmalar: Agar badantarbiya devorchasi bo'lmasa o'tirgichlar, yashiklar va boshqa buyumlardan foydalanish mumkin.

### **«Arg‘amchi ustidan sakrash» o‘vini.**

Arg‘amchaning ikki uchidan bola ushlab aylantira boshlaydilar. Bolalar qator bo‘lishib arg‘amchiga tegmasdan navbatma-navbat sakraydilar. Arg‘amchiga kim tegib ketsa, o‘sha arg‘amchi aylantirayotgan bolalarni birinchi o‘rnini almashtiradi.

### **«Kalga himovasi» o‘vini.**

O‘ynovchilar 3-4 aylanaga saflanadilar. Har bir o‘quvchining orasidagi masofa 1m. Ularning oyoqlari oldida chiziq chiziladi. Aylanalar markaziga tayoqchalar o‘rmatiladi. O‘yinchilardan biri himoya qilish uchun uning atrofiga borib turadi. Unda voleybol yoki basketbol to‘pidan foydalaniadi. O‘yin o‘qituvchi qo‘ng‘irog‘i bilan boshlanadi. O‘quvchilar to‘plarni bir-birlariga oshira turib payt poylab, to‘pni kalgaga tekizishga harakat qildilar. Himoyachi esa qo‘l, oyoq va gavdasi bilan kalchani himoya qiladi. To‘pni tekizgan o‘yinchi himoyachi bilan o‘rnini almashtiradi.

### **«Zovurdagi bo‘ri» o‘vini.**

O‘rtasidan bir-biridan 60-70 sm uzunlikda ikki yonma-yon chiziq o‘tkaziladi, u zovur vazifasini o‘taydi. Bir va ikkita boshqaruvchilar ya’ni «bo‘ri»lar zovurda turadilar. Qolgan o‘quvchilar echkilar hisoblanadilar. Echkilar chiziqning bir tomonida o‘z uylarida bo‘ladilar. Qarama-qarshi tomonga yaylovnini tasvirlaydigan chiziq chiziladi. O‘qituvchining qo‘ng‘irog‘iga binoan echkilar uylaridan chiqib, zovurdan sakrab, yaylovga chopib o‘tadilar. Bo‘rilarni yugurishdan so‘ng qo‘lga tushganlar soni sanab chiqiladi. Yugurishdan so‘ng yangi bo‘rilarni saylanadi.

#### **1.«Kech qolma».**

Polga kubiklar yoki silindrler doira shaklida qo‘yiladi. Bolalar kubiklarni yonida turishadi.

O‘qituvchining ishorasi bilan ular xona bo‘ylab yuguradilar. Bunda ular bir-birlariga urilib ketmasliklari va kubiklarga tegib o‘tmasliklari kerak. «Kech qolma» degan ovoz chiqqach, bolalar o‘z kubiklari qarab yuguradilar.

## **«Xotira mashqi»**

Bu o'yin barcha darslarda o'tkaziladi. Bunda ma'lum fanga oid so'zlardan yoki bir hikoya yoki temaga oid so'zlar ishtirokida o'tkaziladi. Bu o'yinda 2ta dan ortiq o'quvchilar qatnashadi. 1-o'quvchi so'z aytса 2 chisi esa 1-o'quvchingin so'zini takrorlab, yana 1ta so'z qo'shib aytadi, 3- o'quvchi 1-2- o'quvchilarning so'zini takrorlab 3- o'quvchi ham 1ta so'z qo'shib aytadi, o'yin shu tariqa davom ettiradi. O'yinni davom ettira olmagan ya'ni oldingi so'zlarni eslab olmasa, yoki ma'lum sohaga oid so'z topa olmasa o'yindan chiqariladi. O'yin shu tariqa davom ettiriladi.

Masalan: 1-tarbiyachi: uchburchak

2- tarbiyachi: uchburchak, to'rburchak.

3- tarbiyachi: uchburchak, to'rburchak, doira.

2. Bu o'yinda har bir qatordan bittadan tarbiyachi qatnashadi. Ular bir-biriga 1dan 20gacha bo'lgan sonlar ichidan 6ta sonni aytadilar.

1-qator tarbiyachi, 2- qatorga,

2-qator tarbiyachi, 3- qatorga,

3-qator tarbiyachi, 1- qatorga o'ylangan 6 ta sonini aytadi. Qaysi qator berilgan sonni to'liq xotirasida saqlab, so'ng qaytarib aytib bersa. Shu qator g'olib bo'ladi.

## **«Sabzi terish» o'yini.**

Bu o'yining maqsadi o'quvchilarning tafakkurini oshirishdir. O'quvchilar bu o'yinda o'tgan darsni mustahkamlash uchun foydalananadilar.

O'yining borishi: Doskaga quyonning katta maketini qo'yamiz. Bolalar bizning darsimizga quyoncha tashrif buyuribdi. Quyonchamizning tergan sabzilari sochilib ketibdi. Uning sabzilarini terishga yordam beramizmi. (Ha). Qani bolalar sabzilarni orqasida savollar bor ekan. U savollarga javob bersakgina keyin quyoncha xursand bo'larkan. Keyin bolalar birma-bir savollarga javob beradilar. Yaxshi javob bergen o'quvchilarni rag'batlantirib boriladi.

## «TANDIR PISHDI»

O'yinning maqsadi. Bolalarning o'simliklar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, ularda kishilar mehnatini qadrlash ko'nikmalarini shakllantirish.

O'yinning borishi. O'yin uchun mayin tuproq yoki qum kerak. Bolalar davra shaklida o'tirib, chap qo'llarining ustiga tuproq uyadilar.

1-bola: Bug'doy pishdi,

Arpa pishdi,

Sen nimaga pishmaysan-o!

2-bola; Bug'doyni o'tib,

Tegirmonga borib, Unlar chaldirayin-u!

3-bola: unni elab, Xamir qorib,

Kulchalar yasayman-o!

4-bola: Tandir bitsa, Nonlar yopsam, Non yegani Kełasizlarmi-yoyo-yo...

Qolgan- bolalar: «Ha» deyishib, qo'llarini qumdan tushirib oladilar. Kimning tandiri chiroylı bitsa, butunicha qolsa, o'sha g'olib bo'ladi.

O'yinning qoidasi. O'yinda guruh bolalarining hammasi qatnashishi mumkin. Ashula aytilganda bolalar o'ng qo'llari bilan tuproqni urib turadilar.

## «AJIY—BAJIY, CHIY—BAJIY»

O'yinning maqsadi. Bolalarning so'z boyligini mustahkamlash, ularni sezgirlikka, chaqqon harakat qilishga o'rgatish.

O'yinning borishi. 8-10 bola qatnashadigan bu o'yin boshlanishida kichkintoylar doira shaklida turishadi. Shundan keyin bir bola: bir, to'rt, yetti — ikki, besh, yetalab uch,olti, ketti, deb sanaydi. Sanaganda «7» raqami kimga to'g'ri kelsa, o'sha bolalar sardori bo'ladi. So'ng bolalar bir qator bo'lib chordona qurishadi. Ikkala qo'llarining kaftlarini juftlab oldinga cho'zib turishadi. Bolalar sardori ham shu tarzda, faqat kaftlarining orasiga nimadir (cho'pmi, qog'oz parchasini yo toshcha) yashiradi va qo'llarini har bir ishtirokchining kafti orasiga: «Ajiy-bajiy, chiy-bajiy» deb qo'yib chiqadi. U xohlagan bir bolaning kaftiga qo'lidagi narsani boshqalarga sezdirmay tashlaydi va dabdurustdan bir marta chapak

chaladi. Qo‘liga narsa tashlangan bola chaqqonlik bilan o‘rnidan turib, ikki qadam oldinga chiqishi kerak. Agar uni sheriklari ushlab qolsa, oldinga chiqishga ulgurmasa, u sardor bo‘la olmaydi. Mabodo, ulgursa – sardor bo‘ladi. Aks holda, avvalgi sardor o‘yinni yana davom ettiradi. O‘yin shu tarzda davom etadi.

### «TO‘QQIZ OLMA»

